ORCID: 0009-0005-7386-8075, E-mail: [uzoqov66@mail.ru](mailto:uzoqov66@mail.ru)

**Abduraxmanova Nasiba Kuchkarovna**<sup>2</sup>- operatsion samaradorlik xizmati mutaxassisi, mustaqil izlanuvchi, ORCID: 0009-0000-1809-7056, E-mail: [nasiba03002@gmail.com](mailto:nasiba03002@gmail.com)

**Toshmamatov Bobir Mansurovich**<sup>1</sup>-katta o‘qituvchi  
ORCID: 0000-0001-7051-5307, E-mail: [bobur160189@mail.ru](mailto:bobur160189@mail.ru)

<sup>1</sup>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

<sup>2</sup>“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJ, Guzar t., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** *Gazni qayta ishlash korxonasi energiya samaradorligini oshirish, ikkilamchi energiya resurslari potensialini aniqlash va korxonaning energiya balansida ishlatish bo‘yicha texnik yechimlar ishlab chiqish dolzarb masalalar hisoblanadi. Neft va gazni qayta ishlash korxonalarining energiya balansi tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnologik jarayonlarda 65% issiqlik energiyasi, 8÷10% elektr energiyasi va 25÷27% gaz sarf qilinadi. Natijada, atrof-muhitni ifloslantiradi va atrof-muhitga muqarrar yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi energiya (tutun gazlari, ikkilamchi bug‘lar, oqova suvlar,...) oqimlari yuzaga keladi. Shu sababli, ikkilamchi energiya resurslarini qayta ishlatish, ya‘ni utilizatsiya qilish energiya samaradorlikni oshirishni asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot ishining maqsadi gazni qayta ishlash korxonasi ikkilamchi energiya resurslarining miqdori, energetik quvvatini aniqlash, korxonaning umumiy energiya balansida ishlatish imkoniyatlarini baholash hamda qo‘shimcha yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash hamda zaxiralarini asoslashdan iborat.*

*Maqolada sanoat korxonalari va obyektlarining energiya balansi va termodinamik tahlil usullari hamda issiqlik texnikasining asosiy qonunlari asosida ikkilamchi energiya resurslarining issiqlik quvvati va energiya potentsiali aniqlangan. “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” (“Sho‘rtan GKM”) MChJ korxonasi misolida ikkilamchi energiya resurslarining potentsiali termodinamik tahlil qilingan. Ikkilamchi energiya resurslar(IER)ini utilizatsiya qilish natijasida korxonada katta miqdorda yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash imkoniyatlari baholangan. Issiqlik ikkilamchi energiya resurslarini issiqlik quvvatlari hisoblash metodikasi, hisoblash natijalari va IERni tarkibiy diagrammalari keltirilgan.*

*“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi IER energiya potentsiali tahlili shuni ko‘rsatadiki, tutun gazlari bilan atrof-muhitga chiqariladigan issiqlik yuqori 9,0÷10,0 MVt ni tashkil etadi. Dastlabki nazariy tadqiqotlar oqova suvlarning past potentsialli issiqligini utilizatsiya qilish natijasida 2,0÷2,7 MVt qo‘shimcha issiqlik energiyasi olish imkoniyati mavjudligi ko‘rsatdi.*

**Kalit so‘zlar:** *gaz kimyo majmuasi, ikkilamchi energiya resurslari, energiya tejamkorlik, oqova suvlar, yoqilg‘i-energiya resurslari, issiqlik quvvati, tutun gazlari, iqtisodiy samaradorlik.*

УДК 659.658.52

## МЕТОДИКА РАСЧЕТА ПОТЕНЦИАЛА ВТОРИЧНЫХ ТЕПЛОВЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ ШУРТАНСКОГО ГАЗОХИМИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА

**Узаков Гулом Норбоевич**<sup>1</sup>-доктор технических наук, профессор

**Абдурахманова Насиба Кучкаровна**<sup>2</sup>- специалист службы операционной эффективности, самостоятельный соискатель

**Ташмаматов Бобир Мансурович**<sup>1</sup>-старший преподаватель

<sup>1</sup>Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

<sup>2</sup>ООО «Шуртанский газохимический комплекс», Гузарский р-н., Узбекистан

**Аннотация.** Разработка технических решений по повышению энергоэффективности на газоперерабатывающих предприятиях, определение потенциала вторичных энергетических ресурсов (ВЭР) и использование их в энергетическом балансе предприятия являются актуальными вопросами. Анализ энергетического баланса предприятий нефтегазопереработки показывает, что в технологических процессах потребляется 65% тепловой энергии, 8÷10% электрической энергии и 25÷27% газа. В результате возникают потоки вторичной энергии (дымовые газы, вторичные пары, сточные воды и т. д.), которые неизбежно могут быть потеряны в окружающей среде и загрязнить ее. Поэтому использование вторичных энергетических ресурсов, то есть утилизация, является одним из основных методов повышения энергоэффективности. Цель научно-исследовательской работы – определить энергетический потенциал вторичных энергоресурсов, оценить возможности использования ВЭР в общем энергетическом балансе предприятия, обосновать экономию и запасы дополнительного топлива, и энергетические ресурсы.

В статье на основе методов энергетического баланса и термодинамического анализа промышленных предприятий и объектов, а также основных законов теплотехники определены тепловая мощность и энергетический потенциал вторичных энергоресурсов

Проведен термодинамический анализ потенциала вторичных энергоресурсов на примере ООО «Шуртанский газохимический комплекс». В результате утилизации вторичных энергоресурсов оценена возможность экономии топливно-энергетических ресурсов на предприятии. Представлены методика расчета тепловой мощности тепловых вторичных энергоресурсов, результаты расчетов и структурные диаграммы ВЭР.

Анализ энергетического потенциала предприятия ООО «Шуртан ГХК» показывает, что потери тепловой энергии с дымовыми газами в окружающую среду большие и составляют 7,0÷8,2 МВт. Результат предварительных теоретических исследований показывает, что существует возможность получения дополнительной тепловой энергии в размере 2,0÷2,7 МВт в результате утилизации низкопотенциального тепла сточных вод.

**Ключевые слова:** газохимический комплекс, вторичные энергетические ресурсы, энергосбережение, сточные воды, топливно-энергетические ресурсы, тепловая энергия, дымовые газы, экономическая эффективность.

UDC 659.658.52

## METHODOLOGY FOR CALCULATING THE POTENTIAL OF SECONDARY HEAT ENERGY RESOURCES IN THE SHURTAN GAS-CHEMICAL COMPLEX

**Uzakov, Gulom Norboevich**<sup>1</sup>-Doctor of Technical Sciences, professor  
**Abdurakhmanova, Nasiba Kuchkarovna**<sup>2</sup>- operational efficiency service specialist, independent researcher (PhD)  
**Tashmamatov, Bobir Mansurovich**<sup>1</sup>-senior lecturer

<sup>1</sup>Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

<sup>2</sup>“Shurtan GChC LLC, Guzar d., Uzbekistan

**Abstract.** Development of technical solutions for increasing energy efficiency in gas processing enterprises, determining the potential of secondary energy resources and using them in the energy balance of the enterprise are urgent issues. The energy balance analysis of oil and gas processing enterprises shows that 65% of thermal energy, 8÷10% of electric energy and 25÷27% of gas are consumed in technological processes. As a result, flows of secondary energy (flue gases, secondary vapors, waste water,...) occur, which can inevitably be lost to the environment and pollute the environment. Therefore, reuse of secondary energy resources, i.e. disposal, is one of the main methods of increasing energy efficiency. The purpose of the research work is to determine the amount

*of secondary energy resources, energy capacity in the gas processing enterprise, to evaluate the possibilities of use in the total energy balance of the enterprise, and to justify the saving and reserves of additional fuel and energy resources.*

*In the article, the heat capacity and energy potential of secondary energy resources were determined based on the methods of energy balance and thermodynamic analysis of industrial enterprises and objects, as well as the basic laws of heat engineering.*

*In the article, a thermodynamic analysis of the potential of secondary energy resources is made on the example of “Shurtan GChC” LLC. As a result of the disposal of secondary energy resources, the possibility of saving a large amount of fuel and energy resources in the enterprise was evaluated. Methodology for calculating the heat capacity of heat secondary energy resources, calculation results and structural diagrams of SER are presented.*

*The analysis of the SER energy potential of “Shurtan GChC” LLC shows that the heat released to the environment by flue gases is high and amounts to 9.0÷10.0 MW. The result of preliminary theoretical studies shows that there is a possibility of obtaining additional thermal energy of 2.0÷2.7 MW as a result of disposal of low-potential heat of wastewater.*

**Keywords:** *gas-chemical complex, secondary energy resources, energy saving, wastewater, fuel-energy resources, thermal power, flue gases, economic efficiency.*

## Kirish

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan neft va gaz sanoati korxonalarida ham sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlat siyosatining hozirgi bosqichdagi dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1, 2]. “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasida yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash va energiya samaradorlikni oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, texnologik jarayonlarni amalga oshirishda katta miqdorda issiqlik (yuqori haroratli bug‘) va elektr energiyasi talab qilinadi.

Korxonada yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash usullaridan biri mavjud ikkilamchi energiya manbalari (tutun gazlari, ikkilamchi texnologik bug‘lar, oqova suvlar, tashlandiq ventilyatsiya issiqligi, ...) va quyosh energiyasidan foydalanish yuqori samara beradi. Sanoat korxonalarida ikkilamchi energiya resurslari (IER) dan samarali foydalanish tizimini joriy etish energiya samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. IERni utilizatsiya qilish samaradorligini aniqlashda ularning yalpi, texnik va iqtisodiy potensialini hisoblash zarur. Sanoat korxonalarida IER ni utilizatsiya qilish masalalari bo‘yicha soha olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, neft va gazni qayta ishlash korxonalarida IERning mavjud energiya potensialini baholash va undan samarali foydalanish muammolari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasida texnologik jarayonlarda yuzaga keladigan ikkilamchi energiya resurslarining miqdori, energetik quvvatini aniqlash, korxonaning umumiy energiya balansida ishlatish imkoniyatlarini baholash, an’anaviy yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash zaxiralarini asoslashdan iborat.

## Uslub va materiallar

Korxonaning IERning potensialini aniqlashda termodinamik tahlil, energiya balansini uslublari va issiqlik texnikasining asosiy qonunlaridan foydalanildi.

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi yiliga 125 000 tonna polietilen, 1000 tonna oltingugurt, 100 000 tonna suyultirilgan gaz, 90 000 tonna gaz kondensati va 3,5 mlrd. kubometr tozalangan gaz ishlab chiqaradi. Texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun yiliga 99 826 770 kVt soat elektr energiyasi va 1 914 557,34 Gkal issiqlik energiyasi sarf qilinadi. Natijada, tutun gazlari, tashlandiq bug‘lar, issiq havo, oqova suvlar bilan ikkilamchi energiya resurslari (IER) atrof-muhitga issiqlik yo‘qotiladi va ekologiyaga ham zarar keltirishi mumkin. Shu sababli, dunyo amaliyotida neft va gazni

qayta ishlash korxonalarida IER larni utilizatsiya qilish bo'yicha yangi texnologiyalar yaratish va joriy etish bo'yicha soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1-11].

IER-bu texnologik jarayon va qurilmalarda yuzaga keladigan va undan ishlatilmasdan chiqariladigan tashlandiq resurslar, energiya iste'mol qiladigan qurilma va agregatlarda yo'qotiladigan energiya, energiya resurslarini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash qurilmalarida yuzaga keladigan muqarrar yo'qotilishi mumkin bo'lgan energiya resurslari hisoblanadi. IERdan boshqa qurilmalar va energiya ta'minoti tizimlarida qisman yoki to'liq qayta ishlatish, ya'ni utilizatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy ishlar tahlili va gaz-kimyxo sanoati korxonalarida ishlatish tajribada shuni ko'rsatadiki, korxonada yuzaga keladigan IER asosan 3 ta guruhga bo'lish mumkin [1-11]:

1. Issiqlik IER.
2. Yonuvchi chiqindi mahsulotlar.
3. Uzatiladigan gazning ortiqcha bosim energiyasi.

Issiqlik IER – yoqilg'ining (gaz) yonishida hosil bo'ladigan va atrof-muhitga chiqariladigan tutun gazlarining issiqligi, texnologik jarayonlar va qurilmalarda sovitishdan keyingi tashlandiq suv va havo issiqligi, tashlandiq ventilyatsiya havosining issiqligi, texnologik ikkilamchi suv bug'lari, deaerator tashlandiq bug'lari, oqova suvlar issiqligi va h.k.z. kabilar past potentsiilli IER hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida ikkilamchi issiqlik energiyasidan qayta foydalanish, ya'ni issiqlikni utilizatsiya qilish energiya tejamkorlikning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ilmiy asosda yechish uchun korxonaning, sexning, texnologik qurilma va jarayonlarning issiqlik balansini modellashtirish va hisoblash kerak bo'ladi.

Gaz quvurlarida uzatiladigan gazning ortiqcha bosim energiyasi termodinamik nuqtai nazardan, bu biror texnologik qurilmada ishlatish yoki atmosferaga chiqarib yuborishdan oldin gazni bosimini tushirishdan hosil bo'ladigan bosim  $\Delta P$ dan yuzaga keladigan gazning potensial energiyasi hisoblanadi.

Yonuvchi IER (yoqilg'i)-uglerodli xomashyoni kimyoviy va termokimyoviy qayta ishlashda yuzaga keladigan, yonadigan chiqindi mahsulotdir.

### Natija va muhokamalar

“Sho'rtan GKM” MChJ korxonasi misolida IERning asosiy manbalari (1-rasm), issiqlik-texnik va texnologik parametrlari, miqdorlari va issiqlik quvvatlarini aniqlash metodikasi bayon qilingan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida “Sho'rtan GKM” MChJ korxonasining IERning asosiy manbalari va issiqlik-texnik parametrlari aniqlandi hamda 1-jadvalda keltirildi. Ushbu manbalardan chiqariladigan IER-issiqlik chiqindilari bo'lib, ularning energetik potentsiali chiqindi gaz va suyuqliklarning entalpiyasi yoki issiqlik quvvati bilan baholanadi.

Ikkilamchi issiqlik energiyasining quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = G \cdot c_p \cdot \Delta t, \text{ kVt}, \quad (1)$$

bunda, G-korxonadan chiqariladigan chiqindi gazlar va suyuqliklarning sarfi,  $\frac{m^3}{sek}$ ;  $c_p$ - ikkilamchi gazlar va suyuqliklarning issiqlik sig'imi,  $\frac{kJ}{kg \cdot ^\circ C}$ ;  $\Delta t = t_2 - t_1$ - ikkilamchi gazlar, suyuqliklarning va atrof-muhitning haroratlari farqi.

IER ning issiqlik quvvatini entalpiya orqali ifodalasak:

$$Q = G_m \cdot \Delta H = G \cdot (H_2 - H_1), \text{ kVt}, \quad (2)$$

bunda,  $G_m$ -issiqlik tashuvchining massaviy sarfi,  $\frac{kg}{sek}$ ;  $\Delta H$ -entalpiyalar farqi,  $\frac{kJ}{kg}$ .


Issiqlik IERning yillik miqdori quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q^{yil} = \frac{G_{yil} \cdot c_p \cdot \Delta t}{4,187 \cdot 10^9} = \frac{G_{yil} \cdot \Delta H}{4,187 \cdot 10^9} \frac{\text{ming Gkal}}{\text{yil}} \quad (3)$$

**1-jadval**

**“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasiining ikkilamchi energiya manbalari issiqlik-texnik parametrlari**

T/r	IER turlari va manbalari	Issiqlik-texnik parametrlar		
		Harorat, °C	Bosimi	Miqdori
1	Dudbo‘ron (tutun quvuri) dan chiqayotgan gaz tutun gazlari (Markaziy qozonxona qozoni-2 dona) 1 tasidan chiqayotgan mahsulot	155÷175	2,0÷2,5 kPa	175000-200000 m <sup>3</sup> /soat (Qozon yuklamasiga qarab o‘zgaradi)
2	Texnologik ikkilamchi suv bug‘lari Markaziy Qozonxona FA-6102 (vaqti vaqti bilan to‘kish)-1 dona; Atmosferaga chiqayotgan ikkilamchi suv bug‘i	150	0,2÷0,5 kgs/sm <sup>2</sup>	Atmosferaga chiqayotgan bug‘ miqdori, vaqti vaqti bilan (faqat produvka vaqtida smenada 1-marta ochiladi, hisoblanmaydi)
3	Oqova suvlar (Oqova suvlarning tozalash sexidan chiqishi)	30÷35	0,25 atm	Chiqindi suvining umumiy miqdori 90÷115m <sup>3</sup> /soat
4	Ventilyatsiya chiqindi havo issiqligi (Gradirnya qurilmasi ventilyatori). Atmosferaga bug‘lanib chiqayotgan chiqindi suv bug‘i	36÷38	0,25÷0,45 kgs/sm <sup>2</sup>	Atmosferaga chiqayotgan chiqindi bug‘ miqdori tashqi muhit haroratiga qarab 100-300 m <sup>3</sup> /soat



**1-rasm. “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasiining IER tarkibi diagrammasi.**

1-jadval va 1-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasida IERning potentsiali yuqori bo‘lib, tutun gazlari bilan atmosferaga juda katta miqdorda ikkilamchi issiqlik chiqib ketadi.

Tutun gazlarining texnik potentsiali  $Q_{t.g.}$  quyidagiga teng:

$$Q_{t.g.} = G_{t.g.} \cdot c_{p.t.g.} \cdot \rho_{t.g.} \cdot \Delta t = \frac{200\,000}{3600} \cdot 1,03 \cdot 1,2 \cdot 145 = 9\,956,6 \text{ kVt} = 9 \div 10 \text{ MVt}$$

Oqova suvlarining issiqlik quvvati:

$$Q_{o.s.} = \frac{115}{3600} \cdot 4,18 \cdot 1000 \cdot 20 = 2\,670 \text{ kVt} = 2,67 \text{ MVt}$$

**2-jadval**

**“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining asosiy texnik xarakteristikalari**

T/r	Oqova suv (IER) xarakteristikasi	O‘lchov birligi	Miqdori
1	Yillik sarfi	m <sup>3</sup> /yil	1007400÷823440
2	Soatbay sarfi	m <sup>3</sup> /soat	94÷115
3	Bosimi, P	MPa	0,25÷0,050
4	Harorati, t	°C	22,4÷35,0
5	Issiqlik quvvati, Q	kVt	2670


IER ni texnik potentsiali bo‘yicha bajarilgan termodinamik hisoblar shuni ko‘rsatadiki, oqova suvlarining issiqlik quvvati (energetik potentsiali) 2,0÷2,67 MVt ni tashkil qiladi (2-jadval). Suvning issiqlik sig‘imi kattaligi, oqova suvlaridan ikkilamchi foydalanish imkoniyati yuqoriligini ko‘rish mumkin. Tutun gazlarining texnik potentsiali katta bo‘lsada undan foydalanish qiyinchilik tug‘diradi.

**3-jadval**

**“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasida yillik yoqilg‘i-energiya resurslari (YoER) sarfi**

T/r	YoER	O‘lchov birligi	Miqdori	Tonna shartli yoqilg‘i hisobida
1	Elektr energiya	kVt soat/yil	99 826 770	12 277
2	Issiqlik energiyasi	Gkal/yil	1 914 557,34	273 508
3	Yoqilg‘i (gaz)	m <sup>3</sup> /yil	333 431 560	410 120

3-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki korxonaning energiya balansida gazning ulushi eng katta bo‘lib 59%, issiqlik energiyasi (bug‘) 39 %, elektr energiya esa 2 % ni tashkil qiladi (2-rasm).



**2-rasm. Yoqilg‘i-energiya balansini tarkibi diagrammasi.**

**Xulosa**

Natijada, taklif etilayotgan quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosida ikkilamchi issiqlikni utilizatsiya qilish orqali avtonom issiqlik ta‘minoti tizimlari uchun (maishiy, texnik va texnologik) sarflanayotgan energiya miqdori 30 foizgacha tejalishiga erishiladi. Taklif etilayotgan tizimning xarajatlarni qoplash muddati 1,8÷2,0 yilni tashkil etadi. Dastlabki nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oqova suvlarning past potentsialli issiqligini utilizatsiya qilish natijasida texnik va maishiy ehtiyoj uchun 2,0÷2,7 MVt qo‘shimcha issiqlik energiyasi olish imkoniyati yaratiladi.

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasining IER energiya potentsiali tahlili shuni ko‘rsatadiki, tutun gazlari bilan atrof-muhitga chiqariladigan issiqlik yuqori bo‘lib, 9,0÷10,0 MVt ni tashkil etadi.

## Adabiyotlar

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi qurilmalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57 sonli qarori.
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli farmoni.
- [3] Вдовина А.А. Проблемы и перспективы инновационного развития мировой газовой промышленности //Научный журнал Российского газового сообщества, 2014. – №1. – с.71-79.
- [4] Еременко О.В. Приоритеты инновационного развития и особенности оценки эффективности проектов в газоперерабатывающих и газохимических производствах, Москва – Берлин, 2017, 171 с.
- [5] Долотовский И.В. Системный анализ и повышение эффективности энергетического комплекса газоперерабатывающих предприятий //Автореф. на соискание к.т.н., 2008,20с.
- [6] Богданов И.А. Повышение энергоэффективности автономных электротехнических комплексов нефтегазовых предприятий с использованием вторичных энергоресурсов //Автореферат на соискание к.т.н., Санкт-Петербург, 2021. -20 с.
- [7] Байков И.Р., Молчанов Р.А., Гатауллина А.Р., Кулагина О.В. Предложения по представлению информации о вторичных энергетических ресурсах (ВЭР) в энергетическом паспорте // Теория Нефтегаз. №9. 2013. -с.76-82.
- [8] Еременко О.В. Инновационные решения в области повышения энергоэффективности газопереработки // Материалы меж. конференции «Энергетика и энергосбережение: теория и практика», 2017 г. с. 123-124.
- [9] Allayev K.R. Zamonaviy energetika va uning rivojlanish istiqbollari. –Т.: “Fan texnologiyalar nashriyot –matbaa uyi”, 2021. 952 b.
- [10] Таймаров М.А., Ильин В.К., Осипов А.Л., Долгова А.Н., Ахмеров А.В. Теплонасосный комплекс для утилизации вторичных энергоресурсов нефтехимических заводов // Проблемы энергетики, 2016, том 21, №3-4. С. 8-16.
- [11] Василев Г.П., Абуев И.М., Горнов В.Ф. Теплонасосная установка, утилизирующая теплоту неочищенных сточных вод // Новости теплоснабжения, №07(155), 2013 г.
- [12] Куликов В.М. и др. Методика энергетических обследований предприятий по выявлению и использованию вторичных энергоресурсов Свердловск, 2001 г.

UO‘K 621.313

## ELEKTR YURITMALARNI CHASTOTA O‘ZGARTIRGICHLAR YORDAMIDA ISHGA TUSHIRISH ORQALI ENERGIYA SAMARADORLIGI VA ISHONCHLILIGINI OSHIRISH

**Norboyev Anvar Eshmo‘minovich** - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
ORCID: 0009-0000-3474-3118 E-mail: [a\\_norboyev@list.ru](mailto:a_norboyev@list.ru)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada elektr yuritmalarning energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo‘yicha eksperiment tadqiqotlari va ularning natijalari tahlili keltirilgan.

Eksperiment tadqiqotlarda elektr yuritmani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish hamda chastota o‘zgartirgich orqali ishga tushirishda olingan natijalar qiyosiy tahlil etilgan.

Tadqiqot 22 kVt quvvatli elektr dvigatelida amalga oshirilgan. Olingan natijalar grafik asosida keltirilgan. Natijalar tahlili grafoanalitik usul asosida tadqiq etilgan. Elektr yuritmalar chastota o‘zgartirgich orqali ishga tushirilganda uning energiya samaradorligi hamda ishonchliligiga ta’siri eksperiment natijalari asosida baholangan.

Elektr yuritmani chastota o‘zgartirgich yordamida ishga tushirish bo‘yicha olib borilgan eksperiment natijalari asosida energiya samaradorligi 23% ga hamda uning ishonchliligi 26% gacha oshishi ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** elektr yuritma, elektr energiya, enegiya samaradorlik, ishonchlilik, elektr dvigatel, tok, kuchlanish, faza, chastota o‘zgartirgich, quvvat, garmonika, faza siljish burchagi.

УДК 621.313

## ПОВЫШЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ И НАДЕЖНОСТИ ЗА СЧЕТ РАБОТЫ ЭЛЕКТРОПРИВОДОВ ЧЕРЕЗ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛИ ЧАСТОТЫ

**Норбоев Анвар Эшмуминович** - доктор философии по техническим наукам (PhD)

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В статье анализируются экспериментальные исследования и их результаты по повышению энергоэффективности и надежности электроприводов.

В экспериментальных исследованиях был проведен сравнительный анализ результатов прямого пуска электропривода и пуска через преобразователь частоты.

Исследования проводились на электродвигателе мощностью 22 кВт. Полученные результаты представлены на основе графика. Анализ результатов проведен на основе графоаналитического метода. По результатам эксперимента оценено влияние электроприводов на энергоэффективность и надежность преобразователя частоты.

По результатам эксперимента по запуску электропривода с помощью преобразователя частоты научно обосновано повышение энергоэффективности на 23 % и его надежности на 26 %.

**Ключевые слова:** электричество, электроэнергия, энергоэффективность, надежность, электродвигатель, ток, напряжение, фаза, преобразователь частоты, мощность, гармоники, угол сдвига фаз.

UDC 621.313

## INCREASING ENERGY EFFICIENCY AND RELIABILITY BY OPERATION OF ELECTRIC DRIVES THROUGH FREQUENCY CONVERTERS

**Norboev, Anvar Eshmuminovich** - Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD)

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** *This article analyzes experimental studies and their results on increasing the energy efficiency and reliability of electric vehicles.*

*Experimental studies of direct start-up of the electric drive and start-up through a frequency converter, the obtained results have been comparatively analyzed.*

*The research was carried out on a 22 kW electric motor. The obtained results are presented based on a graph. The analysis of the results was researched because of the graphoanalytical method. The impact of the electric drives on the energy efficiency and reliability of the frequency converter was evaluated based on the results of the experiment.*

*According to the results of an experiment on starting an electric drive using a frequency converter, an increase in energy efficiency by 23% and its reliability by 26% was scientifically substantiated.*

**Keywords:** *electricity, electric power, energy efficiency, reliability, electric motor, current, voltage, phase, frequency converter, power, harmonics, phase shift angle.*

### Kirish

Hozirgi kunda jahon miqyosida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 20 foizidan ortig'ini sug'orish tizimidagi elektr yuritmalar iste'mol qiladi, 2030-yilga borib esa, elektr yuritmalarining elektr energiyasini iste'moli o'rtacha 1,8 foizga ortishi kutilmoqda. Shu bilan birga mashinali sug'orish tizimida nasos agregatlarini chastotaviy o'zgartirgichlar orqali boshqarishga, nasos agregatining ish rejimlarini optimallashtirishga hamda energiya sarfini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda iste'molchilarni elektr energiyasi bilan sifatli ta'minlashda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish ishlari bajarilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish" maqsadida sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Sug'orish tizimida chastotaviy rostlanuvchi elektr yuritmalari suv nasoslarining ishonchligi va energiya samaradorligiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ko'pgina oliy ta'lim muassasalari jumladan, "Moskva energetika instituti" milliy tadqiqot universiteti (Rossiya), Dresden University of Technology (Germaniya), University of Michigan (AQSH), University of Waterloo (Kanada), Tokyo institute of technology (Yaponiya), Polytechnic University of Milan (Italiya), O'zR FA Energetika muammolari instituti, Toshkent davlat texnika universitetida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Rostlanuvchi elektr yuritmalar yordamida energiya samaradorlikka erishish masalalariga Saidur R., Hussein Sarhan, Xabarov A.I., Ivanova V.R., Xramshin R. va boshqa olimlarning ishlari bag'ishlangan [4-8].

<sup>1</sup>"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

Sugʻorish tizimida chastotaviy boshqariluvchi elektr yuritmalar asosida nasos agregatlarining ishonchliligi va energiya samaradorligini oshirishga M.Z.Xamudxanov, T.S. Kamalov, A.A. Xoshimov, O.X. Ishnazarov, A.A.Shavazov, S.M.Xushiyev kabi mahalliy olimlar katta hissa qoʻshib kelmoqdalar [9-14]. Ushbu tadqiqotlar chastotaviy rostlanuvchi elektr yuritmalar asosida nasos agregatlarini ishga tushirishni takomillashtirish bilan bogʻliq. Biroq, sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, elektr yuritmalarning ishonchliligi va energiya samaradorligi hamda suv nasoslarining chastotaviy rostlanuvchi asinxron elektr yuritmalari asosida sugʻorish jarayonlarini boshqarish tizimlari masalalari boʻyicha bajarilgan ishlar yetarli darajada oʻrganilmagan. Bu esa oʻz navbatida energiya zahiralari taqchilligi sharoitida energiya va resurs samaradorligini oshirishga qaratilgan qator amaliy ishlar olib borishni taqozo etadi. Bunda elektr yuritmalarning energiya samaradorligi va ishonchliligi muhim oʻrin tutadi. Bugungi qishloq xoʻjaligi ekinlarini sugʻorishda elektr yuritmalarning toʻgʻridan-toʻgʻri ishga tushirilishi, koʻplab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan energiya samaradorligi past tizimda ishlashi, elektr yuritmalarning ishlash muddatlari yuqori ishga tushirish toki hisobiga stator chulgʻamlari izolyatsiyasi oʻz xususiyatini talab qilgan muddatda bajara olmasligi, natijada ularga texnik xizmat koʻrsatish davrlarining qisqarishiga, iqtisodiy xarajatlarning oshishiga olib keladi. Bunday muammolarning yechimlaridan biri sifatida elektr yuritmalarni chastota oʻzgartirgichlar orqali ishga tushirishni tadqiq etamiz.

### Usul va materiallar

Elektr yuritmalarni ishga tushirishda 22 kVt quvvatga ega ETSV 10-160-35 rusumli elektr dvigatelida eksperiment tadqiqotlari oʻtkazildi. 1-jadvalda elektr dvigatelining texnik parametrlari keltirilgan [1].

1-jadval

#### Elektr dvigatelining texnik parametrlari

T/r	Koʻrsatkichlar nomi	Oʻlchov birligi	Miqdori
1	Unumdorlik	m <sup>3</sup> /s	160
2	Bosim	m	35
3	Motor quvvati	kVt	22
4	Kuchlanish	V	380
5	Tok kuchi	A	47±4,0
6	Tarmoq chastotasi	Gs	50
7	FIK	%	85

Eksperiment tadqiqotlari uch bosqichda amalga oshirildi: a) elektr dvigatelni toʻgʻridan-toʻgʻri ishga tushirishda kuchlanish va tokning fazalar boʻyicha oʻzgarishi; b) elektr dvigatelni chastota oʻzgartirgich orqali ishga tushirishda ishga tushirish tokining, nominal kuchlanish va tokning oʻzgarishi natijalarini olish; s) olingan eksperiment natijalarining oʻzaro tahlili.

Eksperiment tadqiqotlarini olib borishda AR5 analizatoridan foydalanilgan. Ushbu qurilma bugungi kunda keng qoʻllanilmoqda. Chunki ishlashda ishonchli, aniqlik sinfi boshqa oʻlchash qurilmalaridan nisbatan yuqori, shuningdek oʻlchash diapozoni keng. Quyida ushbu qurilmaning texnik xarakteristikasi 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

#### AR5 analizatorining texnik xarakteristikasi

T/r	Koʻrsatkichlar nomi	Oʻlchov birligi	Miqdori
1	Fazalar soni		3
2	Maksimal kuchlanish	V	500
3	Maksimal tok	A	2000
4	Tok va kuchlanish aniqlik sinfi		0,5
5	Quvvat boʻyicha aniqlik sinfi		1,0


## Natijalar

*Elektr yuritmani to'g'ridan-to'g'ri ishga tushirish.* Dastlab elektr yuritma to'g'ridan-to'g'ri ishga tushirilganda uning ishga tushirish toki, nominal toki va kuchlanishi natijalari olindi. Kunning 11:20 dan 11:40 gacha bo'lgan vaqtda eksperiment tadqiqotlar natijalariga asosan elektr dvigatelining har bir fazasidagi tokning o'zgarishi keltirilgan (1-rasm). Bunda elektr dvigatel ishga tushirilganda tokning keskin ortishi, uchala faza toklari maksimal 33 A gacha hamda uchinchi faza tokining qiymati nominal qiymatdan sezilarli o'zgarishi aniqlandi. Bu esa elektr dvigatelining ishonchli ishlashini ta'minlashda salbiy ta'sir ko'rsatadi [1].




**1-rasm. Asinxron dvigatel faza toklarining vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi**

Soat 11:20 dan 11:40 gacha bo'lgan vaqtda eksperiment tadqiqotlar natijalariga asosan elektr dvigatelining kuchlanishning o'zgarishi keltirilgan (2-rasm). Bunda elektr dvigatel ishga tushirilganda tokning keskin ortishi, uchala faza toklari maksimal 373 dan 380 V gacha o'zgarishi aniqlandi.



**2-rasm. Elektr yuritma faza kuchlanishlarining vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi**

Elektr dvigatelini chastota o'zgartirgichsiz ishga tushirgan holatda kuchlanish va tok garmonikalarining nominal qiymatga nisbatan o'zgarishi 3-rasmida keltirilgan. Bunda har bir faza kuchlanish va tok garmonikalarining o'zgarishi (foizda) aniqlangan [1].




**3-rasm. Elektr dvigateli kuchlanishi va tok garmonikalarining o'zgarish grafigi**

Elektr yuritmalarni to'g'ridan-to'g'ri ishga tushirish eksperiment natijalaridan ko'rinib turibdiki, nominal tok va kuchlanish qiymatlari fazalar bo'yicha nobarqaror ish rejimi xarakteriga egadir.

*Elektr yuritmani chastota o'zgartirgich orqali ishga tushirish* - Bunday ishga tushirishni amalga oshirishda kerakli o'lchamdagi chastota o'zgartirgichini tanlash va hisoblash uchun yuklanishning xususiyatlarini bilish kerak. Keyin esa mos chiqish quvvatiga ega chastota o'zgartirgichni tanlash zarur. Kerakli chiqish quvvati to'rtta usulda hisoblanishi mumkin. Hisoblash usuli dvigatellarning pasport ma'lumotlari bilan bog'liq bo'ladi.

Chastota o'zgartirgichni tanlashda elektr dvigatel quvvatiga asosan DELIXI firmasining DELIXI CDI-E100G022/P030T4 30 kVA chastota o'zgartirgichi tanlab olindi, uning elektr dvigateliga ulanish sxemasi 4-rasmda keltirildi.




**4-rasm. Chastota o'zgartirgichning elektr dvigateliga ulanish sxemasi.**

5, 6-rasmlarda ulanish sxemasi asosida 22 kVt quvvatga ega suv nasosi tanlab olingan Delixi E100G022 rusumli chastota o'zgartirgichiga ulandi.




**5-rasm. O'rnatilgan chastota o'zgartirgichning umumiy ko'rinishi**



**6-rasm. O'rnatilgan chastota o'zgartirgich yordamida tajribalar o'tkazilishi jarayoni**

Chastota o'zgartirgichi o'rnatilgandan keyingi ETCR4700 elektr analizatori yordamida o'lchov natijalari olindi [1]. 7-rasmda chastota o'zgartirgich o'rnatilgan holat uchun tadqiqot natijalari asosida A faza kuchlanish va toklari orasidagi faza siljish burchagining o'zgarishi grafigi keltirilgan. 9, 10-rasmlardan elektr dvigatelning barcha chulg'amlaridagi elektr kattaliklarining simmetriyasi normal holatdan o'zgarganiga, natijada elektr dvigatelning benuqson ishlashiga ta'sir etishini aniqlash mumkin.




**7-rasm. Elektr dvigateli faza toklarining vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi [1]**

Chastotaviy boshqariluvchi elektr yuritmaning faza toklarining o'zgarish grafigi 7-rasmda keltirilgan. Bunda soat 14:30 dan 14:31 gacha bo'lgan davrda, ya'ni yuritmani ishga tushirishda tok o'z qiymati 0 dan 28 A gacha (barqaror ish rejimgacha) oshirilganligi, soat 14:31 dan 14:43 gacha tekis o'zgarishi aniqlandi.

Elektr yuritmaning faza kuchlanishlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi grafigi 8-rasmda keltirilgan. Olingan natijalarga asosan soat 14:30 dan soat 14:31 oralig'ida kuchlanish 380 V

qiymatiga erishishi aniqlandi. Soat 14:31 dan 14:43 gacha o'tkazilgan eksperiment natijalari faza kuchlanishlarining bir xil qiymatlarni qabul qilganligini ko'rsatdi.



### 8-rasm. Elektr yuritma faza kuchlanishlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi grafigi

Umuman olganda elektr yuritmalarni chastota o'zgartirish yordamida ishga tushirishda energiya samaradorligi olingan natijalar asosida quyidagicha qiyosiy tahlil olib borilgan:

chastota o'zgartirgich qo'llanilmagan elektr yuritmaning sutkalik energiya iste'moli 494,1 kVt·soat ni tashkil etgan (22 kVt quvvatli elektr yuritma misolida). Bu esa soatiga 20,6 kVt ga to'g'ri keladi. Elektr yuritmaning oylik energiya iste'moli 14824,1 kVt·soat, yillik 177889,3 kVt·soat ni tashkil etdi.

Chastota o'zgartirgich qo'llanilgan hol uchun elektr energiya iste'moli:

sutkalik iste'mol: 377,1 kVt·soat;

soatiga: 15,7 kVt ga to'g'ri keladi;

oylik energiya iste'moli 11313,9 kVt·soat;

yillik energiya iste'moli esa 135767,2 kVt·soat ni tashkil etadi.

Natijada ushbu elektr yuritma elektr energiyasi iste'molining kamayishi hisobiga sug'orish tizimining bir mavsumi uchun (75 sutka) 8775 kVt·soat elektr energiyasi tejashiga va 7,9 mln so'm iqtisodiy samaradorlikka bu esa yiliga 38 mln so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilishini ko'rsatadi.

### Xulosa

Olingan natijadan ko'rishimiz mumkinki, 22 kVt quvvatga ega elektr yuritmani chastota o'zgartirgich yordamida ishga tushirish natijasida yiliga 42120 kVt·soat elektr energiyasi tejashiga, unda faza tok va kuchlanishlarining simmetriyasining yaxshilanishi evaziga elektr dvigatelini tekis ishlashiga erishildi. Bu esa o'z navbatida elektr yuritmasining energiya samaradorligi hamda texnik xizmat ko'rsatish davrini oshirilishi natijasida uning ishonchli ishlashi bilan baholanadi.

### Adabiyotlar

- [1] Norboyev Anvar Eshmo'minovich. Kichik quvvatli elektr yuritmalarning ishonchliligi va energiya samaradorligini oshirish. Monografiya. "Intellekt" nashriyoti, 2024 y. -110 bet.

- [2] Beytullaeva, R., Tukhtaev, B., Norboev A., Nimatov, K., & Djuraev, S. (2023). Analysis of pump operation in common pressure pipelines using the example of the “Chirchik” pumping station. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 08015). EDP Sciences.
- [3] Berdiev, U., Norboev A., & Mamarajabova, Z. (2023). Investigation of asymmetry in asynchronous motor used in a borehole pump. In E3S Web of Conferences (Vol. 383, p. 04057). EDP Sciences.
- [4] Saidur R. Energy Savings and Emission Reductions in Industrial Boilers thermal science, Year 2011, Vol. 15, No. 3, pp. 705-719.
- [5] Hussein Sarhan. Energy Efficient Control of Three-Phase Induction Motor Drive // Energy and Power Engineering, 2011 y, #3, pp.107-112.
- [6] Хабаров А.И. Асинхронный частотно-регулируемый электропривод с системой управления переменной структуры. Автореферат диссертации. г.Екатеринбург. 2020 г. 25 с.
- [7] Иванова В.Р., Киселев И.Н. Частотно-регулируемый электропривод для энергосбережения и оптимизации технологических процессов в электротехнических комплексах // Известия высших учебных заведений. Проблемы энергетики. г.Казань, Россия. 2019 г. Т. 21. №5. С. 59-70.
- [8] Храмшин Р., Храмшин Т., Храмшина Э., Корнилов Г. Исследование частотно-регулируемых асинхронных электроприводов в лабораторных условиях. г.Магнитогорск, Россия, 2007 г. Учеб.пос. 120 с.
- [9] Хамудханов М.З., Хашимов А.А. Динамика регулируемого асинхронного электропривода Т.: АН УзССР, Фан, 1971. – 204 с.
- [10] Kamalov T.S., Shavazov A.A., Sayfullayeva L.I. Chastotaviy rostlanuvchi elektr yuritmalı sug‘orish nasos stansiyasining energetik va iqtisodiy samaradorligi // Informatika va energetika muammolari.2017 y. 3-son, 63-69 b.
- [11] Камалов Т.С., Шавазов А.А., Сайфуллаева Л.И. Вопросы пуска и регулирование производительности насосного агрегата насосных станций систем машинного орошения // Энергосбережение и Водоподготовка. – Москва, 2019. №3 (119), С. 51-54. (05.00.00; №97).
- [12] Ишназаров О.Х. К вопросу рационального закона частотнорегулируемого электропривода турбомеханизмов. Кузбасский государственный технический университет.
- [13] Хашимов А.А., Мирисаев А.У, Кан Л.Т. Энергосберегающий асинхронный электропривод. – Ташкент.: Фан ва технология, 2011. – 98 с.
- [14] Хушиев С.М. Обзор методов повышения энергоэффективности электрических приводов // Научно-технический журнал “Энергосбережение и водоподготовка”, 2018 г. №5. С.37-47.

UDC 631.623(043.3)

## PROBLEMS OF HYDRAULIC CALCULATION OF EARTHEN CHANNELS

**Khazratov, Alisher Normurodovich**<sup>1,2</sup> - Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Associate Professor, ORCID: 0000-0003-1300-0547, E-mail: [khazratov@gmail.com](mailto:khazratov@gmail.com)

**Rakhmatov, Makhmud Ismatovich**<sup>2</sup> – Candidate of Technical Sciences, Associate Professor, ORCID: 0009-0008-0759-9841, E-mail: [rahmatov1959@mail.ru](mailto:rahmatov1959@mail.ru)

<sup>1</sup>Karshi Institute of Irrigation and Agricultural Technologies at the National Research University “TIAME”, Karshi city, Uzbekistan

<sup>2</sup>Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** *The main task of the design of earthen channels is to calculate the dimensions of the stable channel shape in which irreversible deformation of the channel cross-section does not occur. This article provides information on calculating the hydraulic parameters of a stable channel shape in the design of earthen channels in which channel deformation does not occur.*

*In this case, the need to adopt dynamic stable channel parameters that can work in harmony with nature through the method of checking the dynamic stability of the channel with the help of hydraulic modeling programs is based on modeling using HEC-RAS software and field-experience data.*

*Based on the research results, a new approach is required in the hydraulic calculation for the design of the earthen canals, taking into account the changing nature of the flow and discharge. Taking into account the natural increase of the bottom slope of the deformed channel bed due to sediment deposition, it is suggested to strengthen the side embankments of the channel and choose the flow slope that ensures the balance of the sediment balance.*

*The essence of the proposed method consists in adopting dynamic stable channel parameters that are in harmony with nature and do not require continuous cleaning and repair works in the calculation of earthen channels. For this, it is necessary to model the sediment transport with the help of hydraulic modeling programs of the earthen channels.*

**Keywords:** *dynamic stable channel, hydraulic calculation of earthen channels, suspended sediment concentration, channel deformation, hydraulic calculation methods*

УДК 631.623(043.3)

## ВОПРОСЫ ГИДРАВЛИЧЕСКОГО РАСЧЕТА ЗЕМЛЯНЫХ КАНАЛОВ

**Хазратов Алишер Нормуродович**<sup>1,2</sup> - доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

**Рахматов Махмуд Исматович**<sup>2</sup> - кандидат технических наук, доцент

<sup>1</sup>Каршинский институт ирригации и агротехнологий при Национальном исследовательском университете «ТИИИМСХ», г. Карши, Узбекистан

<sup>2</sup>Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** *Основной задачей проектирования земляных каналов является расчет размеров устойчивой формы канала, при которой не происходит необратимой деформации поперечного сечения канала. В данной статье приведены сведения по расчету гидравлических параметров устойчивой формы русла при проектировании земляных каналов, в которых не возникает русловых деформаций.*

*В этом случае необходимость принятия динамически устойчивых параметров русла, способных работать в гармонии с природой, посредством метода проверки динамической устойчивости русла с помощью программ гидравлического моделирования основана на моделировании с использованием программного обеспечения HEC-RAS и данных натурного эксперимента.*

*По результатам исследований требуется новый подход при гидравлическом расчете при проектировании земляных каналов с учетом изменяющегося характера стока и расхода. Учитывая естественное увеличение уклона дна деформированного русла канала за счет отложения наносов, предлагается укрепить боковые насыпи канала и выбрать уклон дна канала, обеспечивающий сбалансированность баланса наносов.*

*Суть предлагаемого метода заключается в принятии при расчете земляных каналов динамических устойчивых параметров русла, гармонирующих с природой и не требующих постоянных работ по очистке и ремонту. Для этого необходимо смоделировать транспорт наносов с помощью программ гидравлического моделирования земляных каналов.*

**Ключевые слова:** динамический устойчивый канал, гидравлический расчет земляных каналов, концентрация взвешенных наносов, деформация русла, методы гидравлического расчета.

UO‘K 631.623(043.3)

## **GRUNT O‘ZANLI KANALLARNI GIDRAVLIK HISOBLASH MASALALARI**

**Xazratov Alisher Normurodovich<sup>1,2</sup>** - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rahmatov Mahmud Ismatovich<sup>2</sup>** – texnika fanlari nomzodi, dotsent

<sup>1</sup>TIQXMMI MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

<sup>2</sup>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** *Grunt o‘zanli kanallarni loyihalashning asosiy vazifasi bu ortga qaytmas o‘zan deformatsiyalanishi sodir bo‘lmaydigan mustahkam kanal shaklining o‘lchamlarini hisoblashdan iborat. Maqolada grunt o‘zanli kanallarni loyihalash uchun gidravlik hisoblashda o‘zan deformatsiyalanishi sodir bo‘lmaydigan mustahkam kanal parametrlarini hisoblash masalalari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.*

*Bunda gidravlik modellash dasturlari yordamida kanalni dinamik mustahkamlikka tekshirish usuli orqali tabiat bilan hamohang ravishda ishlay oladigan dinamik mustahkam kanal parametrlarini qabul qilish zarurligi HEC-RAS dasturi yordamida modellashtirilgan va dala-tajriba ma‘lumotlari bilan asoslanadi.*

*Tadqiqot natijalariga ko‘ra, grunt o‘zanli kanallarni loyihalash uchun gidravlik hisoblashda oqim va oqiziqning o‘zgaruvchan xarakterini hisobga olgan holda yangicha yondashuv talab qilinadi. Bunda loyqa bosishi tufayli deformatsiyalangan kanal o‘zani tub nishabligining tabiiy ravishda oshishini hisobga olgan holda kanal yon dambalarini mustahkamlash va oqiziq balansining muvozanatini ta‘minlaydigan oqim nishabligini tanlash taklif qilinadi.*

*Taklif etilayotgan usulning mohiyati grunt o‘zanli kanallarni hisoblashda tabiat bilan hamohang va uzluksiz tozalash ta‘mirlash ishlarini talab qilmaydigan dinamik mustahkam kanal parametrlarini qabul qilishdan iborat. Buning uchun grunt o‘zanli kanallarni gidravlik modellash dasturlari yordamida oqiziq transportini modellash talab etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *dinamik mustahkam kanal, grunt o‘zanli kanallarni gidravlik hisoblash, muallaq oqiziq konsentratsiyasi, o‘zan deformatsiyasi, gidravlik hisoblash usullari.*

## Introduction

Earthen channels are artificial engineering structures that are considered to be an integrated system where stream and channel morphometric elements are naturally connected. One of the most important and complex issues in the design of channels in natural channel beds in irrigation systems is the issue of correctly considering the interaction of turbulent flow dynamics with the channel bed.

The main task of the design of earthen channels is to calculate the dimensions of the stable channel shape in which irreversible deformation of the channel cross-section does not occur. The deformation of the channel leads to a loss of flow capacity of the channel cross-section [1-3].

Since the stability of the channel cross-section is the main factor for the reliable use of the channel, it is necessary to follow the following requirements in the design of channels: the channel should not be eroded and deposited, the overall stability of the cross section should be ensured, the channel bed should have enough flow capacity, and the minimum loss to filtration should be achieved from the channel bed.

The design of canals that meet these requirements and the reconstruction of existing irrigation canals are now considered as the main factor in the modernization of irrigation and reclamation systems in many developed countries [4].

Chow, Raudkivi, Simons and Sentürk, Wallingford and others noted the following four methods of hydraulic calculation for the design of stable channels:

- regime method;
- tractive force method;
- method of permissible velocities;
- rational method [5, 6].

## Methods and materials

The method of permissible velocities is used in our republic for the design of channels.

When designing channels according to the method of permissible velocities, the average velocity in the channel should be as follows [1]:

$$g_l < g < g_{yu} , \quad (1)$$

where:

$g_l$  – the minimum permissible velocity in which sediment deposition does not occur,  $m/s$  ;

$g_{yu}$  – the maximum permissible velocity in which channel bed erosion does not occur,  $m/s$  ;

According to the norms and rules of urban planning (SHNQ 2.06.03-12), it is recommended to determine the (minimum) permissible velocities without deposition is as follows:

taking into account the effect of suspended sediments in the flow:

$$g_n = A * Q^{0.2} , \quad (2)$$

$A$  – is an empirical coefficient and is determined depending on the fall velocity.

$W < 1,5 \text{ mm/s}$  when  $A = 0,33$ ;

$W = 1,5 \div 3,5 \text{ mm/s}$  when  $A = 0,44$ ;

$W > 3,5 \text{ mm/s}$  when  $A = 0,55$ .

However, compared to the tractive force method, the permissible velocities method cannot accurately represent the physical processes between the bottom material and the flow. Therefore, according to Ankum (Ankum), the method of permissible speeds should no longer be used [7].

Currently, irrigation canals are calculated mainly for the steady flow of water. Also, it is assumed that there is a state of balance in which there is no deposition and erosion, and the water entering the channel and the flow are completely transferred. Nevertheless, a steady uniform flow is rare in nature. Because the sediment transport is highly dependent on the flow condition, the sediment capacity of the channel also changes with flow condition [4].

Jahonda quyosh fotoelektrik batareyalaridan elektr energiyasini ishlab chiqarish 2022-yilda rekord darajada 270 TW/h ga, ya‘ni o‘tgan yilga nisbatan 26 foizga oshib, deyarli 1300 TW/h ga yetdi. Bu 2022-yilda barcha qayta tiklanadigan energiya manbalari texnologiyalari xususan, tarixda birinchi marta shamol energiyasidan foydalanishni ortda qoldirdi. Quyosh fotoelektrik batareyalarning iqtisodiy jozibadorligining uzluksiz o‘shishi, ta‘minot zanjirining ommaviy rivojlanishi va siyosatni qo‘llab-quvvatlashning kuchayishi, ayniqsa Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Hindistonda kelgusi yillarda quvvat o‘shishini yanada tezlashtirishi kutilmoqda. Olimlarning kelajakdagi bashoratlarida 2027-yilga kelib, quyosh fotoelektrik batareyalar quvvati deyarli uch baravar ko‘payishi, bu davr mobaynida taxminan o‘rnatilgan quvvati 1500 GWga o‘shishi, 2026-yilga kelib tabiiy gazdan va 2027-yilga kelib ko‘mirdan foydalanishga nisbatan oshishi ta‘kidlangan [4].

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida yurtimizda “yashil” energetikani rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, 2023-yil oxiriga qadar umumiy quvvati 4 300 MW bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishga tushiriladi. Bunda 2 100 MW yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari; 1 200 MW ijtimoiy soha, xo‘jalik bino va inshootlari hamda xonadonlarda o‘rnatiladigan quyosh panellari; 550 MW tadbirkorlar tomonidan kichik fotoelektr stansiyalari [5] barpo etiladi.

Quyosh fotopanellarining samaradorligi – ushbu qurilmalar yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining umumiy miqdori (masalan, yiliga kWh) ushbu panellar sirtiga tushadigan yig‘indi quyosh radiatsiyasiga (bir xil birlikda, ya‘ni kVt/yil) nisbatiga teng bo‘ladi. Bu quyida tavsiflangan bir qancha atrof-muhit omillariga (quyosh nurlanishi, havo harorati, shamol tezligi, nisbiy namlik va havo bosimi) va quyosh modulining xususiyatlariga (modul quvvati, modul harorati) bog‘liq.

**Quyosh nurlanishi ( $W/m^2$ ):** ma‘lum vaqt oralig‘ida birlik yuzaga tushadigan quyosh energiyasining miqdori. Quyosh fotopanellar ishlab chiqaradigan elektr energiyasining miqdori quyosh nurlanishiga bog‘liq bo‘lib, quyosh nurlanishining yuqori ko‘rsatkichlarida ushbu qurilmalarda elektr energiyasini ishlab chiqarish oshishiga olib keladi.

**Havo harorati ( $^{\circ}C$ ):** atrofdagi havoning isiganlik darajasini belgilaydi. Harorat fotopanellarning samaradorligiga ta‘sir qiladi, chunki ularning ishlashi harorat o‘zgarishiga sezgirdir. Quyosh modullarida harorat oshishi ularning energiya samaradorligini pasayishiga olib keladi.

**Shamol tezligi (m/s):** shamol oqimi havo molekularining ma‘lum bir yo‘nalishda harakatlanish tezligini bildiradi. Shamol tezligi fotopanellardan konvektiv issiqlik uzatishga va ularning ish haroratiga ta‘sir qiladi. Yuqori shamol tezligi issiqlik tarqalishini kuchaytirishi mumkin, bu esa quyosh fotopanellari haroratining pasayishiga va tizim ish faoliyatini yaxshilashiga olib keladi. Issiq iqlim sharoitida quyosh fotopanellaridan yuqori samaradorlikni olish uchun uni yerdan yoki tomdan bir necha santimetr balandlikda o‘rnatish, doimiy havo oqimini (shamoldan) ta‘minlash va fotopanellarning qizib ketishini oldini olish talab qilinadi.

**Nisbiy namlik (%):** nisbiy namlik havoda mavjud bo‘lgan namlik miqdorini ma‘lum bir haroratda maksimal quvvatiga nisbatan ifodalaydi. Nisbiy namlik quyosh fotopanellari tizimlarning elektr energiyasini ishlab chiqarishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilmasa ham, u chang va boshqa zarrachalarning ifloslanishiga yoki fotopanel yuzalarida to‘planishiga ta‘sir qilishi mumkin. Yuqori namlik darajasi loyqa suvlarning ko‘payishiga yordam beradi, bu esa tizimning umumiy samaradorligini pasaytiradi.

**Havo bosimi (Pa):** havo bosimi atmosferaning birlik maydoniga ta‘sir qiladigan kuchni anglatadi. Havo bosimi quyosh fotopanellarining samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qilmasa

ham, u fotopanellardagi mexanik kuchlanish va ularning strukturaviy yaxlitligiga ta'sir qilishi mumkin. Havo bosimidagi sezilarli o'zgarishlar, masalan, ekstremal ob-havo sharoitlari bilan bog'liq bo'lganda, tizimning uzoq muddatli ishonchliligi va ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

**Quyosh modulining quvvati (kW):** modul quvvati standart sinov sharoitida yetkazib beradigan maksimal elektr quvvatini ifodalaydi. Odatda vatt (W) yoki kilovatt (kW) da ifodalanadi va modulning quvvati yoki nominalini bildiradi.

**Quyosh modulining harorati (°C):** modul harorati quyosh fotopanellarining ish paytidagi haroratini bildiradi. Bunga quyosh nurlanishi, atrof-muhit harorati, shamol tezligi va issiqlik tarqalish mexanizmlari kabi omillar ta'sir qiladi. Modul haroratini kuzatish va nazorat qilish fotopanel tizimlarning ishlashi va samaradorligini optimallashtirish uchun juda muhimdir, chunki yuqori haroratlar elektr quvvatining pasayishiga va modulning tezlashishiga olib kelishi mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi:** Qarshi shahri iqlim sharoitida quyosh fotopanellari samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarini tadqiq qilish.

### Usul va materiallar

Quyosh fotopanellarining ishonchli ishlashi asosan quyosh radiatsiyasi va tashqi havo haroratga bog'liq bo'lib, quyosh modullarida nominal harorat 25 °C bo'lganda ishlash samaradorligi eng yuqori bo'ladi. Quyosh fotopanellarining turli harorat rejimlarida ishlash samaradorligi nazariy hisoblarini keltirib o'tamiz. Quyosh fotopanellari quvvatining tashqi haroratga bog'liqligi quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi [6]:

$$P = P_{sts} + P_{T-coeff} \cdot (T_c - T_{NOCT}), \quad (1)$$

bunda  $P_{sts}$  – quyosh fotopanellari quvvati, W;  $P_{T-coeff}$  – haroratga bog'liq solishtirma quvvat koeffitsiyenti, 0,004 W/°C (200 W, -0,8 W/°C);  $T_c$  – tashqi havo harorat °C;  $T_{NOCT}$  – quyosh modulidagi nominal harorat, 25 °C.

Quyosh fotopanellari foydali ish koeffitsiyentining tashqi haroratga bog'liqligi quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi [7, 8]:

$$\eta = \eta_p \cdot (1 - \beta \cdot (T_c - T_{NOCT})), \quad (2)$$

bunda  $\eta_p$  – quyosh modulining nominal rejimdagi (1000 BT/m<sup>2</sup>, 25 °C) foydali ish koeffitsiyenti;  $\beta$  – quvvat o'zgarishiga bog'liqlik harorat koeffitsiyenti, 0,004 W/°C.

Quyosh fotopanellari sirtining changlanganlik miqdorining samaradorlik ko'rsatgichiga bog'liqlik empirik tenglamasi quyidagicha:

$$\eta = 12,3 \cdot \exp\left(-\frac{\rho}{17,4}\right) + 4,2, \quad (3)$$

bunda  $\rho$  – solishtirma changlanganlik miqdori, gr/m<sup>2</sup>.


Quyosh fotopanellari haroratining tashqi havo harorat va shamol tezligiga bog'liqlik tenglamasi quyidagicha [9]:

$$T_m = E \cdot (e^{a+b \cdot V}) + T_a, \quad (4)$$

bunda  $T_m$  – quyosh fotopaneli orqa tomonining harorati, °C;  $T_a$  – tashqi havo harorat, °C;  $E$  – Modul yuzasiga quyosh nurlanishi tushishi, W/m<sup>2</sup>;  $V$  – shamol tezligi, m/s;  $a$  – past shamol tezligida va yuqori quyosh nurlanishida modul haroratining yuqori chegarasini belgilovchi empirik aniqlangan koeffitsiyent;  $b$  – shamol tezligi oshishi bilan modul haroratining pasayish tezligini belgilovchi empirik aniqlangan koeffitsiyent.


### Natijalar

1-rasmda quyosh radiatsiyasi 1000 W/m<sup>2</sup> bo'lganda tashqi harorat o'zgarishining quyosh moduli chiqish tokining kuchlanishga (a) va quvvatning kuchlanishga (b) bog'liqlik egri chiziqlari keltirilgan. Bunda harorat oshganda quyosh modulining chiqish kuchlanishi va quvvati kamayishi aniqlandi. Tashqi harorat 25 °C va quyosh radiatsiyasi 1000 W/m<sup>2</sup> bo'lganda chiqish quvvati maksimal 200 W ga, agar harorat 75 °C bo'lganda taxminan chiqish quvvati 110 W ga teng bo'lar ekan.




**1-rasm. Tashqi havo harorat o'zgarishining quyosh moduli chiqish tokining kuchlanishga (a) va quvvatning kuchlanishga (b) bog'liqlik egri chiziq-lari**

2-rasmda quyosh fotoelektrik batareyasi sirtining changlanganlik (a) miqdori (b) uning foydali ish koeffitsiyentiga bog'liqlik egri chizig'i keltirilgan. Bunda quyosh fotoelektrik batareyalari sirti changlanganlik miqdori taxminan 0,1 gr/m<sup>2</sup> bo'lganda qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti maksimal 16%, agar 80 gr/m<sup>2</sup> bo'lgan qurilmaning samaradorligi 4 % gacha pasayishi tajribalarda aniqlandi. Ushbu natijalarni aniqlashda (3) empirik tenglamadan foydalanildi.



**2-rasm. Quyosh fotoelektrik batareyasining toza (a), changlanganlik holati (b) va changlanganlik miqdorining qurilmaning samaradorlik ko'rsatgichiga bog'liqlik egri chizig'i (c)**

3-rasmda quyosh fotoelektr panellari haroratining shamol tezligiga bog'liqlik egri chizig'i keltirilgan. Bunda quyosh radiatsiyasi 1000 W/m<sup>2</sup> va tashqi harorat 40 °C qabul qilingan. Natijalarga ko'ra shamol tezligi oshganda quyosh panellari harorat pasayishi aniqlandi. Quyosh fotopanellarida harorat pasayishi energiya samaradorligini oshishiga olib keladi.



**3-rasm. Quyosh fotopanellari haroratining shamol tezligiga bog'liqlik egri chizig'i**

## Xulosa

Quyosh fotopanellari samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarga tashqi havo harorati, quyosh nurlanishi, shamol tezligi ekanligi asoslandi. Bunda tashqi havo harorati 25 °C va quyosh radiatsiyasi 1000 W/m<sup>2</sup> bo'lganda, fotopanelning quvvati maksimal 200 W ga, agar harorat 75 °C bo'lganda taxminan chiqish quvvati 110 W ga teng bo'lishi o'rganildi. Quyosh fotopanellari sirtining changlanganlik miqdori taxminan 0,1 gr/m<sup>2</sup> bo'lganda qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti maksimal 16%, agar 80 gr/m<sup>2</sup> bo'lgan qurilmaning samaradorligi 4% gacha pasayishi tajribalarda aniqlandi. Shamol tezligi juda kichik bo'lganda quyosh fotopanellarining harorati 72 °C, shamol tezligi 25 m/s bo'lganda harorat pasayishi 48 °C bo'lishi aniqlandi.

## Adabiyotlar

- [1] [https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Publication/2021/Jun/IRENA\\_World\\_Energy\\_Transitions\\_Outlook\\_Summary\\_2021\\_RU.pdf](https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Publication/2021/Jun/IRENA_World_Energy_Transitions_Outlook_Summary_2021_RU.pdf)
- [2] Uzoqov G'.N., Xo'jaqulov S.M., Uzoqova Yu.G'. Muqobil energiyadan foydalanish asoslari. - T.: "Fan va texnologiya", 2017, 160 b.
- [3] Аллаев К.Р. Современная энергетика и перспективы ее развития. Под общей редакцией академика Салимова А.У. -Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 952 стр.
- [4] Quyosh energiyasidan foydalanish ko'rsatgichlari. <https://www.iea.org/energy-system/renewables/solar-pv>
- [5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
- [6] G.N.Uzokov, A.B.Safarov. Mathematical Modeling Of Solar Photoelectric Batteries In Matlab/Simulink System. IBAST. Vol.3. Iss.9. 2023. Pp.80-88. <https://zenodo.org/records/8347989>
- [7] Safarov A.B., Uzoqov G'.N. Kombinatsiyalashgan quyosh-shamol energetik qurilmasini modellashtirish. "O'zbekgidroenergetika" ilmiy-texnik jurnali №2, 2023. 77-81 b.
- [8] Safarov A.B., Uzoqov G'.N., Mamedov R.A. Kombinatsiyalashgan quyosh-shamol energetik qurilmasi. Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (17.08.2023 y. FAP 02323)
- [9] D. L. King et.al. Photovoltaic array performance model. Sandia National Laboratories Albuquerque, New Mexico 87185-0752. [https://energy.sandia.gov/wp-content/gallery/uploads/SAND-2004\\_PV-Performance-Array-Model.pdf](https://energy.sandia.gov/wp-content/gallery/uploads/SAND-2004_PV-Performance-Array-Model.pdf)
- [10] Toshmamatov, B., Davlonov, Kh., Rakhmatov, O., Toshboev, A., Rakhmatov, A. Modeling of thermal processes in a solar installation for thermal processing of municipal solid waste AIP Conference Proceedings 2612,050027 2023.
- [11] Toshmamatov, B., Davlonov, Kh., Rakhmatov, O., Toshboev, A. [Recycling of municipal solid waste using solar energy](#). IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 1030(1),012165 2021.
- [12] Autonomous heat-cooling and power supply system based on renewable energy devices (trigeneration system) A.B.Safarov, O.I.Rakhmatov, and Yu.G.Uzakova BIO Web of Conferences, 02(2023) CIBTA-II-2023 71 030 <https://doi.org/10.1051/bioconf/20237102030>.

UO‘K 662.997

## BIOMASSADAN MUQOBIL YOQILG‘I OLISHNING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI

**Davlonov Xayrulla Allamuratovich**- texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,  
ORCID:0000-0001-7444-9853, E-mail: [xayrulla.davlonov@bk.ru](mailto:xayrulla.davlonov@bk.ru)

**Hatamov Inomjon Amrulloevich** – katta o‘qituvchi  
ORCID: 0000-0003-2761-4777, E-mail: [hotamjon.88@mail.ru](mailto:hotamjon.88@mail.ru)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Jahonda energiya resurslari kamayib borayotganligi, ularning tannarxi muntazam ravishda oshib borishi ulardan kelajakda oqilona foydalanishda energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. Mualliflar tomonidan biomassadan muqobil yoqilg‘i olish uchun biogaz qurilmasidan foydalanish samaradorligi va qurilmaning xususiy ehtiyojiga sarflanadigan issiqlik energiyasini tejash hamda qurilmaning issiqlik texnik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari tahlil qilingan.*

*Ushbu maqolada biomassa (xomashyo) ni biologik qayta ishlashning aerob va anaerob usullari, turli xil biogaz qurilmalarining issiqlik sxemalari qiyoslash usulida tahlil qilingan. Anaerob bijg‘ish jarayonida olingan hisobiy-nazariy tadqiqotlarning maqsadlari, biogaz qurilmalarining issiqlik sxemalari, issiqlik samaradorligi, issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirilish darajasini hisobga olgan holda taqribiy baholashga yo‘naltirilgan.*

*Biogaz reaktorini issiqlik bilan ta‘minlash uchun kombinatsiyalashgan piroliz-biogaz tizimi taklif etilgan. Mazkur tipdagi biogaz qurilmasiga piroliz kondensatorining yo‘qotiladigan issiqligidan foydalanilishi natijasida biogaz reaktorida 52-56 °C harorat hosil qilish mumkinligi aniqlangan bo‘lib, natijada anaerob bijg‘ish jarayoni uchun qurilmaning xususiy energiya sarfini 60-65 % gacha kamaytirish imkonini beradi.*

*Biomassani qayta ishlashda, yoqilg‘i va energiya tejamkorligiga erishishda quyosh energiyasi va piroliz kondensatori issiqligi asosida ishlaydigan kombinatsiyalashgan piroliz-biogaz qurilmasidan foydalanish maqsadga muvofiq.*

***Kalit so‘zlar:** aerob, anaerob, kondensator, piroliz reaktori, biogaz reaktori, biomassa, muqobil yoqilg‘i, kollektor, bioenergetik qurilma.*

УДК 662.997

## АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ АЛЬТЕРНАТИВНОГО ТОПЛИВА ИЗ БИОМАССЫ

**Давлонов Хайрулла Алламуратович** – доктор философии по техническим наукам, доцент,  
**Хатамов Иномжон Амруллоевич** – старший преподаватель

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** Тот факт, что мировые энергоресурсы сокращаются, их стоимость регулярно растет, показывает важность использования энергоэффективных технологий для их рационального использования в будущем. Авторы проанализировали результаты научных исследований по эффективности биогазовой установки для получения альтернативного топлива из биомассы и экономии тепловой энергии, используемой для конкретных нужд установки, а также теплотехнические показатели установки.*

*В данной статье в сравнительном порядке анализируются аэробные и анаэробные способы биологической переработки биомассы (сырья), тепловые схемы различных биогазовых установок. В данной статье цели расчетно-теоретических исследований, полученные в процессе анаэробного сбраживания, направлены на приблизительную оценку тепловых схем биогазовых установок, термического КПД, теплотехнических параметров с учетом степени оптимизации.*

*Авторами предложена комбинированная пиролизно-биогазовая система обеспечения теплом биогазового реактора. В результате использования отработанного тепла конденсатора пиролиза для данного типа биогазовой установки установлено, что в биогазовом реакторе можно создать температуру 52-56 °С, что позволяет снизить удельные энергозатраты установки. для процесса анаэробного сбраживания до 60-65%.*

*При переработке биомассы и достижении экономии топлива и энергии целесообразно использовать комбинированную пиролизно-биогазовую установку, работающую на основе солнечной энергии и тепла конденсатора пиролиза.*

**Ключевые слова:** *аэробный, анаэробный, конденсатор, пиролизный реактор, биогазовый реактор, биомасса, альтернативное топливо, коллектор, биоэнергетическое устройство.*

UDC 662.997

## **ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF ALTERNATIVE FUEL FROM BIOMASS**

**Davlonov, Khairulla Allamuratovich** - Doctor Of Philosophy In Technical Sciences,  
Associate Professor

**Hatamov, Inomjon Amrulloevich** – Senior lecturer

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** *The fact that the world's energy resources are declining and their prices are regularly rising shows the importance of using energy efficient technologies for their rational use in the future. The authors analyzed the results of scientific research on the efficiency of a biogas plant for producing alternative fuel from biomass and saving thermal energy used for the specific needs of the plant, as well as the thermal performance of the plant.*

*This article comparatively analyzes aerobic and anaerobic methods of biological processing of biomass (raw materials), thermal circuits of various biogas plants. In this article, the goals of computational and theoretical studies obtained in the process of anaerobic digestion are aimed at an approximate assessment of the thermal circuits of biogas plants, thermal efficiency, thermal parameters, taking into account the degree of optimization.*

*In the article, the authors proposed a combined pyrolysis-biogas system for providing heat to a biogas reactor. As a result of using the waste heat of the pyrolysis condenser for this type of biogas plant, it was found that a temperature of 52-56 °C can be created in the biogas reactor, which allows reducing the specific energy consumption of the plant. for the anaerobic digestion process up to 60-65%.*

*When processing biomass and achieving fuel and energy savings, it is advisable to use a combined pyrolysis-biogas plant operating on the basis of solar energy and the heat of a pyrolysis condenser.*

**Keywords:** *aerobic, anaerobic, condenser, pyrolysis reactor, biogas reactor, biomass, alternative fuel, collector, bioenergy device.*

### **Kirish**

Jahonda energiya resurslarining kamayib borayotganligi, tannarxining muntazam ravishda oshib borishi ulardan kelajakda oqilona foydalanishda energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan ekanligini ko'rsatadi [1]. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quyosh va biomassa energiyasining texnik potentsiali yuqoriligini hisobga olib, ulardan amalda foydalanish ekologik va iqtisodiy jihatdan yuqori samara beradi.

Respublikamizning biomassa zaxirasi mavjud bo'lgan hududlari, jumladan, Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm va Toshkent viloyatlarida iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash, issiqxona xo'jaliklarini issiqlik va muqobil yoqilg'i bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z

navbatida biogaz qurilmalaridan foydalanishni jadallashtirib, ularning ishlash samaradorligini va ishonchliligini oshiradi [2].

Jahon amaliyotida biomassadan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi uchun yuqori sifatli o'g'it olish maqsadida foydalanish yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda energetikani rivojlantirish yo'nalishlarida noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda [3].

### Usullar va materiallar

Jahon tajribasida biomassaga ikki usulda: aerob (kislorodli muhitda) va anaerob (kislorodsiz muhitda) ishlov berish usullari mavjud. Ma'lumki, biogaz qurilmalari (BGQ) biomassani anaerob bijg'ishidan hosil bo'ladigan gazni to'plash, tozalash, saqlash va iste'molchilarga uzatadigan qurilma hisoblanadi. Odatda, biogaz qurilmalarining mexanik va avtomatik usulda ishlaydigan turlari mavjud. Biogaz qurilmalarining samaradorligi metantenk hajmi, bijg'itish vaqti va biogaz ajralish miqdoriga qarab aniqlanadi. Ko'p hollarda, kichik biogaz qurilmalarining aralashtirgichlari vertikal o'qli, katta biogaz qurilmalarining aralashtirgichlari esa gorizontal o'qli shaklda tayyorlanadi [4].

Biomassadan muqobil yoqilg'i olish qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning olimlari ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Jumladan, S.M.Birkin (Rossiya) o'z tadqiqot ishida chorva go'ngini qayta ishlash texnologiyasi va texnik vositalarini takomillashtirishni tadqiqot qilgan. Ushbu biogaz qurilmasida anaerob bijg'ish jarayonini saqlab turishda energiya talab qilganligi sababli ishlab chiqarilgan energiyaning bir qismidan qurilmaning xususiy ehtiyoji uchun foydalanilgan [5].

S.L.Kolovanov (Rossiya) tomonidan suv o'tlaridan biogaz va biogranula olish qurilmasi ishlab chiqilgan [6]. Taqdim etilgan konstruksiyada suv o'tlarini o'stirishda biohovuzdan foydalanilgan va biomassa zaxirasini to'plashda foydalaniladigan yer maydonining qisqarishiga hamda biogaz olish miqdorining oshishiga erishilgan.


I.X.Mingazetdinov (Rossiya) ning tadqiqot ishlarida biomassani maydalaydigan shnekli biogaz olish qurilmasi ishlab chiqilgan [7]. Ushbu biogaz qurilmasi konstruksiyasida bir vaqtning o'zida biomassani maydalash va aralashtirish uchun keskichli shnek o'rnatilgan. Bu esa qurilmaning amortizatsion xarajatlarini oshirgan va ishlash samaradorligini pasaytirgan.

S.S.Yampilov (Rossiya) tomonidan biogaz qurilmasi yaratilgan [8]. Qurilmaning reaktori gumbaz shaklda bo'lib, yarim sharsimon pastki qismga ega germetiklangan vertikal silindrlil metantenkni, shuningdek biomassani issiqlik bilan ta'minlaydigan spiral shaklidagi texnologik quvurlarni o'z ichiga oladi. Metantenkda vertikal ramkali aralashtirgich bo'lib, unga vertikal va gorizontal pichoqlar ham o'rnatilgan. Pastki gorizontal pichoq metantenk tubining egrilik radiusiga mos keladi va cho'kindi hosil bo'lishini oldini oladi. Ushbu qurilma biogaz ishlab chiqarishni oshirishga, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajarish qulayligini ta'minlaydi.

A.A.Kovalyov (Rossiya) tomonidan biogaz qurilmasining energiya samaradorligini oshirish va issiqlikni ta'minlash maqsadida biogaz qurilmasida o'rnatilgan issiqlik nasosidan foydalanilgan. Issiqlik nasosli biogaz qurilmasi dastlabki biomassa isitiladigan idish, kurakcha shaklli mexanik aralashtirgich, issiqlik almashtirgich, bioreaktor, fermentatsiya haroratini ushlab turish uchun ichki issiqlik almashtirgich, tushirish moslamasi, chiqindi suvlarni cho'ktirish tanki, chiqindi suvdan issiqlik energiyasini olish uchun o'rnatilgan issiqlik almashtirgich, ta'minot nasosi, issiqlik nasosi bug'latkichi, issiqlik nasosi, kompressor, kondensator va nasosdan tashkil topgan (1-rasm) [9].

Ushbu qurilma konstruksiyasining murakkabligi va tannarxining qimmatligi uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Italiyalik olim Lucia Lijo va boshqalar tomonidan Shimoliy Italiyada joylashgan biogaz qurilmalarining ekologik samaradorligi tahlil qilingan [10]. Biogaz qurilmalarini takomillashtirish natijasida biogazdan elektr energiyasi ishlab chiqarish Italiya elektr energiya tarmog'i bilan solishtirilganda ekologik foyda keltirishi aniqlangan.



**1 – rasm. Issiqlik nasosli biogaz qurilmasining texnologik sxemasi:**

1 – dastlabki substrat isitiladigan idish, 2 – kurakcha shaklli mexanik aralashtirgich, 3 – issiqlik almashtirgich, 4 – bioreaktor, 5 – fermentatsiya haroratini ushlab turish uchun ichki issiqlik almashtirgich, 6 – tushirish moslamasi, 7 – chiqindi suvlarni choʻktirish tanki, 8 – chiqindi suvdan issiqlik energiyasini olish uchun oʻrnatilgan issiqlik almashtirgich, 9 – taʼminot nasosi, 10 – issiqlik nasosi bugʻlatkichi, 11 – issiqlik nasosi, 12 – kompressor, 13 – kondensator, 14 – nasos.

Antonio Giuliano tomonidan mezofil va termofil sharoitda chorvachilik goʻngi, oqova suvlarni, qishloq xoʻjalik oʻsimliklari va chiqindilarini birgalikda anaerob bijgʻish jarayoni oʻrganilgan [11]. Ushbu tadqiqot davomida foydalanilgan har bir substratdan hosil boʻladigan biogaz tarkibidagi metan miqdorini aniqlash uchun tahlillar ham oʻtkazilgan.

Shvetsiyalik tadqiqotchi Asa Hadin tomonidan anaerob bijgʻish jarayoni uchun xomashyo sifatida ot goʻngidan foydalanilgan. Ot goʻngidan biogaz va biooʻgʻit ishlab chiqarish salohiyati tahlil qilingan va matematik modellashtirilgan [12].


Amerikalik olim Haoqin Chjou ilmiy tadqiqot ishlarida qattiq holatdagi biomassadan biogaz olish jarayoni va suyuq holatdagi biomassadan biogaz olish jarayoni solishtirilgan [13]. Tadqiqot davomida ikkala jarayonning ham afzallik va kamchiliklari oʻrganilgan.

Peter Lutz tomonidan biogaz va kompost ishlab chiqarish uchun kombinatsiyalangan qurilma hamda fermentatorni biogaz ishlab chiqarish va kompostlash oʻrtasida oʻxshash qurilmaga almashtirish usuli ishlab chiqilgan [14]. Kombinatsiyalangan qurilma, biogaz ishlab chiqarish texnologik jarayonining uzluksizligini taʼminlash uchun seriyali quruq fermentator, gaz tozalovchi filtr, biogaz chiqish liniyasi, chiqindi gaz quvuri, biogaz tarkibini aniqlash uchun monitoring vositalaridan tashkil topgan.

Yaponiyalik Shigehisa Kimura tomonidan fermentlanadigan biomassaning chiqindi suyuqligidan samarali foydalanish tadqiqot qilingan [15]. Xomashyo sifatida yirik shoxli qoramol goʻngidan foydalanadigan biogaz qurilmasida fermentatsiya jarayonida hosil boʻlgan suyuq biochiqindidan qishloq xoʻjaligida suyuq biooʻgʻit sifatida samarali foydalanilgan.

Xitoylik Yuzheng Wang ilmiy tadqiqot ishida Xitoy chorvachilik sanoati (yirik shoxli qoramol, choʻchqa, qoʻy va parrandachilik) ning hozirgi holati va chorva goʻngini anaerob bijgʻitish orqali biogaz ishlab chiqarish imkoniyatlari oʻrganilgan [16].

G.O.Karamyan (Armaniston) ilmiy tadqiqot ishlarida Armaniston davlatining oʻrtacha kattalikdagi (50-100 ta) choʻchqachilik fermalari uchun sutkasiga 3-3,5 m<sup>3</sup> biogaz olish mumkin boʻlgan V=20 m<sup>3</sup> hajmdagi avtonom quyosh-biogaz qurilmasi taklif qilingan. Oʻrtacha kattalikdagi choʻchqachilik fermasi uchun avtonom quyosh-biogaz qurilmasi suyuq goʻng qabul qilgich, nasos, issiqlik almashtirgich, metantenk, goʻng saqlagich, separator, yer osti filtri, gazgolder, biogaz qozoni, quyosh kollektori, issiqlik akkumulyatoridan tashkil topgan. Reaktordagi biomassani bijgʻishi uchun kerakli haroratni taʼminlashda yuzasi 4,72 m<sup>2</sup> boʻlgan SOLAR – 500 tipdagi quyosh suv qizdirish kollektoridan foydalanilgan (2-rasm) [17].




**2 – rasm. Cho‘chqachilik fermasi uchun avtonom biogaz qurilmasining texnologik sxemasi:**

*1 – suyuq go‘ng qabul qilgich, 2 – nasos, 3 – issiqlik almashtirgich, 4 – metantenk, 5 – go‘ng saqlagich, 6 – separator, 7 – yer osti filtri, 8 – gazgolder, 9 – biogaz qozoni, 10 – quyosh kollektori, 11 – issiqlik akkumulyatori.*

Ushbu biogaz qurilmasining konstruksiyasi uchun metall sarfi kattaligi hisobiga qurilma tannarxining oshishi va tunda issiqlik bilan ta‘minlashda olingan biogazning 50% ni o‘z ehtiyoji uchun sarflashi qurilmaning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

A.T.Otarbayev (Qozog‘iston) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida qishloq xo‘jaligi chiqindilarini utilizatsiya qilish va o‘z ehtiyojlari uchun biogaz ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘rganilgan hamda biogaz qurilmalarini joriy etish ekologik va iqtisodiy jihatdan foydaliligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tadqiqot davomida Qozog‘iston respublikasi hududlarida biogaz ishlab chiqarish uchun quyosh-biogaz qurilmalaridan foydalanish istiqbollari tahlil qilingan va quyosh biogaz qurilmalarini joylashtirishning maqbul hududlari aniqlangan. Shuningdek, quyosh energiyasini akkumulyatsiyalash orqali ishlaydigan biogaz qurilmasini sxemasi va uning ishlash prinsipi taklif etilgan. Quyosh-biogaz qurilmasi quyosh suv qizdirish kollektori; issiqlik saqlash baki; bioreaktor; gaz tozalash filtri; gaz hisoblagich; gazgolderdan tashkil topgan (3-rasm) [18].




**3 – rasm. Quyosh-biogaz qurilmasining texnologik sxemasi.**

*1 – quyosh suv qizdirish kollektori; 2 – issiqlik saqlash baki; 3 – bioreaktor; 4 – gaz tozalash filtri; 5 – gaz hisoblagich; 6 – gazgolder.*

Qurilmaning asosiy kamchiliklari, issiqlik saqlash baki orqali bioreaktorga beriladigan issiqlik haroratining pasayishi kuzatiladi. Shu bilan birga tunda energiya saqlovchi sifatida kalsiy xlorid va elektr energiyasi ishlatiladi. Biogaz qurilmalarini qizdirishda elektr energiyasidan foydalanish qurilmaning samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Ushbu yo‘nalishda mahalliy olimlarimizdan professor Sh.J.Imomov (O‘zbekiston) ning ilmiy tadqiqot ishlarida, kichik o‘lchamli biogaz qurilmalarida biogaz miqdorini reaktor hajmiga bog‘liqlik holati o‘rganilgan. Tadqiqot jarayoni termofil harorat rejimida (45 – 55 °C) olib borilgan. Biomassa namligi esa 95 % ni tashkil etgan. Ko‘p rejimli biogaz olish qurilmasi reaktor, shlam yig‘ish idishi, to‘kish quvuri, gaz tozalash filtri, gaz hisoblagich, siyraklanishni taqsimlash krani, kompressor, termorostlagich, boshqaruv pulti, termostat nasosi, bioreaktorga suv haydash nasosidan iborat (4-rasm) [19].




**4 – rasm. Atmosfera bosimidan past siyraklangan holatda termofil issiqlik haroratida ishlovchi ko‘p rejimli biogaz olish qurilmasi:**

1 – reaktor; 2 – shlam yig‘ish idishi; 3 – to‘kish quvuri; 5 – gaz filtri; 6 – gaz hisoblagich; 7 – siyraklanishni taqsimlash krani; 8 – kompressor; 9 – termorostlagich; 10 – boshqaruv pulti; 11 – termostat nasosi; 12 – bioreaktorga suv haydash nasosi.

### Natijalar

Mualliflar tomonidan biomassadan biogaz olish uchun piroliz kondensatorining issiq suv energiyasidan samarali foydalanish ko‘rib chiqilgan. Hududning biomassa potensialini hisobga olib, biomassani biologik (termik) qayta ishlash uchun kombinatsiyalashgan piroliz-biogaz qurilmasining issiqlik sxemasi taklif qilingan (5-rasm) [20].



**5-rasm. Kombinatsiyalashgan piroliz-biogaz qurilmaning prinsipial sxemasi:**

1 – biomassa, 2 – yuklash quvuri, 3 – aralashtirgich, 4 – sharsimon qopqog, 5 – suvli quvur, 6 – fazali o‘tish issiqlik akkumulyatorli quvur, 7 – biogaz, 8 – filtr, 9 – gazgolder, 10 – bioo‘g‘it chiqarish quvuri, 11 – bioreaktor, 12 – issiqlikni ta‘minlash uchun kengayish baki, 13 – harorat rostlagichi (termostat), 14 – quyosh kollektori, 15 – biomassa (o‘simlik qoldiqlari, yog‘och sanoati chiqindilari), 16 – yuklash qopqog‘i, 17 – yog‘och ko‘mir chiqarish qopqog‘i, 18 – o‘choq, 19 – bug‘-gaz quvuri, 20 – kondensator-sovutgich, 21 – suyuq yoqilg‘i baki, 22 – gazgolder, 23 – piroliz reaktori, 24,25 – past haroratli suv quvurlari, 26,27 – yuqori haroratli suv quvurlari, 28,29 – biogaz quvuri, 30 – iste‘molchilarni issiq suv bilan ta‘minlash quvuri, 31 – ventillar, 32,33 – biogaz va pirogaz iste‘molchilari.

### Xulosa

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining va xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, biomassani anaerob bijg‘itish uchun bioreaktorda kerakli haroratni saqlash yoki elektr energiyasidan foydalanib qizdirish lozim. Bu esa biogaz qurilmalarining asosiy kamchiligi

hisoblanib, samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shunga asosan reaktordagi haroratni ta'minlashda biogaz qurilmalarining kombinatsiyalashgan konstruksiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yechilishi lozim bo'lgan ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mamlakatimiz hududlarida biomassa energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini chuqur o'rganib, hozirgi kundagi mavjud dolzarb muammolar energetika xavfsizligi, tabiiy yoqilg'i resurslarini tejash, ekologik muammolari barqarorlashtirishda kombinatsiyalashgan bioenergetik qurilmalardan foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

### Adabiyotlar

- [1] Захидов Р.А., Лутпуллаев С.Л. Мировые тенденции в развитии альтернативной энергетики и задачи Узбекистана в освоении возобновляемых источников энергии // Гелиотехника. 2015., №1. – стр. 55 – 69.
- [2] Uzoqov G'.N., Davlonov X.A. Geliioisixonalarning energiya tejamkor isitish tizimlari // Monografiya. Toshkent, Voris-nashriyoti, 143 b.
- [3] Узakov Г.Н., Давланов Х.А., Тошмаматов Б.М. Энергоэффективные системы и технологии с использованием альтернативных источников энергии. Альтернативная энергетика. 2021. Т. 1. С. 7-19.
- [4] Hatamov I.A., Ibragimov U.X. Piroliz qurilmalarining zamonaviy holati tahlili //Innovatsion texnologiyalar. – 2022. – Т. 1. – S. 112-117.
- [5] Биркин С.М. Совершенствование технологии и технических средств утилизации навоза крупного рогатого скота //автореферат диссертации, Волгоград. 2009 г.стр.23
- [6] <https://patents.google.com/patent/RU2545737C2/ru>
- [7] <https://patents.google.com/patent/RU188085U1/ru>
- [8] <https://patents.google.com/patent/RU2605312C1/ru>
- [9] Ковалев А.А. Повышение энергетической эффективности биогазовых установок // диссертация к.т.н., Москва. 2014 г. стр.114
- [10] Lucia Lijo., Lorenzo-Toja Yago., Gonzalez-Garcia Sara., Bacenetti Jacopo., Negri Marco., & Moreira Maria Teresa. (2017). Eco-efficiency assessment of farm-scaled biogas plants. Bioresource Technology, 237, 146–155. doi:10.1016/j.biortech.2017.01.055
- [11] Giuliano, A., Bolzonella, D., Pavan, P., Cavinato, C., & Cecchi, F. (2013). Co-digestion of livestock effluents, energy crops and agro-waste: Feeding and process optimization in mesophilic and thermophilic conditions. Bioresource Technology, 128, 612–618. doi:10.1016/j.biortech.2012.11.002
- [12] Hadin, A., & Eriksson, O. (2016). Horse manure as feedstock for anaerobic digestion. Waste Management, 56, 506–518. doi:10.1016/j.wasman.2016.06.023
- [13] Zhou, H., & Wen, Z. (2019). Solid-State Anaerobic Digestion for Waste Management and Biogas Production. Advances in Biochemical Engineering/Biotechnology. doi:10.1007/10\_2019\_86
- [14] <https://worldwide.espacenet.com/patent/search/family/040863529/publication/US8440437B2?q=US8440437>
- [15] Shigehisa Kimura. Biogaz qurilmasining fermentatsiya suyuqligidan samarali foydalanish. Yaylov va bog'dorchilik 71-jild 2-son (2023). (<https://www.snowseed.co.jp/wp/wp-content/uploads/grass/700-04.pdf>)
- [16] <https://patents.google.com/patent/CN104650605A/zh>
- [17] Карамян Г.О. Автономная солнечно-биогазовая установка // ISSN 0002-306X. Изв. НАН РА и ГИУА. Сер. ТН. 2007. Т. LX, № 2.
- [18] Отарбаев А.Т. Перспективы использования гелиобиогазовых установок на территории Республики Казахстан // UNIVERSUM: Технические науки. Май. 2022 г. № 5 (98)
- [19] Imomov J.Sh. Biogaz: Ekologiya va organik o'g'it //dissertatsiya, Toshkent. 2016 yil. 207 bet.
- [20] Uzakov G'.N., Hatamov I.A., Davlonov X.A., Safarov A.B., Mamedov R.A. Kombinatsiyalashgan bioenergetik qurilma. № FAP 2393. 25.01.2024-yil.

UO‘K 662.997

## YER OSTI ISSIQLIK ALMASHINUV QURILMALARINING MATEMATIK MODELLARI TAHLILI

**Xamrayev Sardor Ixomovich** – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,  
ORCID: [0000-0002-0847-9488](https://orcid.org/0000-0002-0847-9488), E-mail: [xamrayevs@bk.ru](mailto:xamrayevs@bk.ru)

**Ibragimov Umidjon Xikmatullayevich** – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,  
ORCID: [0000-0002-8848-0971](https://orcid.org/0000-0002-8848-0971), E-mail: [ibragimov\\_u@rambler.ru](mailto:ibragimov_u@rambler.ru)

Qarshi-muhandislik iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Binolarni isitish va sovitish tizimlarida qayta tiklanadigan energiya manbai sifatida geotermal energiya manbalari keng qo‘llaniladi. Yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining issiqlik xarakteristikasi geotermal issiqlik nasoslarini (GIN) samarali ishlashi uchun eng muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada yirik GIN tizimlarda keng qo‘llaniladigan uchta turdagi, vertikal quduqli GIN, qoziqli GIN va gorizontal quduqli GINlari bo‘yicha so‘nggi ishlanmalar tahlili keltirilgan. Shuningdek, turli geologik sharoitlarni inobatga olgan holda issiqlik uzatish jarayonlarini tadqiqot qilish uchun taklif etilgan analitik va sonli modellarining tahlillari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** geotermal issiqlik nasoslari, vertikal quduqli geotermal issiqlik nasoslari, gorizontal quduqli issiqlik nasoslari, isitish va sovitish, gorizontal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari.*

УДК 662.997

## АНАЛИЗ МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ ПОДЗЕМНЫХ ТЕПЛООБМЕННЫХ УСТРОЙСТВ

**Хамраев Сардор Илхомович** – доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент  
**Ибрагимов Умиджон Хикматуллаевич** – доктор философии по техническим наукам (PhD),  
доцент

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** В системах отопления и охлаждения зданий широко используются источники геотермальной энергии в качестве возобновляемого источника энергии. Тепловые характеристики подземных теплообменных устройств являются наиболее важными для эффективной работы геотермальных тепловых насосов (ГТН). В данной статье представлен анализ последних разработок трех типов ГТН, широко используемых в крупных системах: ГТН с вертикальными скважинами, ГТН с сваями и ГТН с горизонтальными скважинами. Также представлены анализы аналитических и численных моделей, предложенных для исследования процессов теплопередачи с учетом различных геологических условий.*

***Ключевые слова:** геотермальные тепловые насосы, геотермальные тепловые насосы с вертикальными скважинами, тепловые насосы с горизонтальными скважинами, отопление и охлаждение, горизонтальные подземные теплообменные устройства.*

UDC 662.997

## ANALYSIS OF MATHEMATICAL MODELS OF UNDERGROUND HEAT EXCHANGE DEVICES

**Khamrayev, Sardor Ixomovich** – Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD),  
Associate Professor

**Ibragimov, Umidjon Khikmatullayevich** – Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD),  
Associate Professor


Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan


**Abstract.** Geothermal energy sources are widely used as a renewable energy source in building heating and cooling systems. The thermal characteristics of underground heat exchange devices are crucial for the efficient operation of geothermal heat pumps (GHPs). This article presents an analysis of recent developments in three types of GHPs widely used in large-scale systems: vertical borehole GHPs, pile-based GHPs, and horizontal borehole GHPs. Additionally, analyses of analytical and numerical models proposed for investigating heat transfer processes, taking into account various geological conditions, are presented.

**Keywords:** geothermal heat pumps, vertical borehole geothermal heat pumps, horizontal borehole heat pumps, heating and cooling, horizontal underground heat exchange devices.

## Kirish

Binolarni isitish va sovitish tizimlarida qayta tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanishni rivojlantirish, atrof-muhitga taʼsirini va issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini kamaytirish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Foydalanadigan qayta tiklanadigan energiya manbalari ichida geotermal energiya katta qiziqish uygʻotmoqda, bunga sabab geotermal manbaning ishonchliligi va har joyda amalda mavjudligidir. Geotermal energiyadan foydalanishning oltita asosiy kategoriyasi mavjud: geotermal issiqlik nasoslari (GIN) choʻmilish va suzish havzalarida foydalanish, xonalarini isitish, issiqxonalarini isitish, akvakultura uchun havzalarni isitish va sanoatda foydalanish [1]. GINlari dunyoda eng koʻp qoʻllanilib, ularning umumiy oʻrnatilgan quvvati 77547 MVt ni tashkil etadi. Bu qiymat 2020-yilda geotermal energiyadan bevosita foydalanishdagi umumiy oʻrnatilgan quvvatning 71,6 % qismini tashkil etadi. Xalqaro geotermal kongresi (WGC) maʼlumotlariga koʻra ushbu qiymat 2015-yil bilan taqqoslaganda geotermal energiyani yillik isteʼmoli 1,84 marta ortgan. Yashash va savdo binolarida energiya tejash, CO<sub>2</sub> tashlanmalarini kamaytirish va havo ifloslanishini oldini olish uchun GINlari muhim rol oʻynaydi [2]. GINning oddiy tizimi yer osti issiqlik almashinuv qurilmasi, issiqlik nasosi va bino ichidagi issiqlik taʼminoti tizimlaridan iborat. Geotermal energiyadan ochiq foydalanish odatda bilvosita hisoblanadi, bunda asosiy jihoz yer osti issiqlik almashinuv qurilmasi hisoblanadi. GINli tizimlar uchun yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining toʻrtta turi mavjud: gorizontaal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari va chuqur quduqli issiqlik almashinuv qurilmalari (1-rasm).






**1-rasm. To'rtta turdagi yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining bazaviy sxemalari.**

### Uslub va materiallar

Gorizontaal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari odatda katta maydonni talab etganligi sababli, dunyoda keng qo'llanilmaydi. Shuning uchun gorizontaal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari to'g'risida to'xtalmaymiz. GINlari to'g'risidagi birinchi ma'lumot 1912-yilda olingan patent hisoblanadi [3]. GIN larni Shimoliy Amerika va Yevropa tez sur'atlarda rivojlanish davri birinchi neft inqirozidan keyin 1970-yillarga to'g'ri keladi. Ko'p sonli tadqiqotlarni aksariyati issiqlik uzatishni modellashtirish va GIN larini loyihalashtirishga qaratilgan. Vertikal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari, qoziqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari va chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalariga bag'ishlangan va Science Direct ma'lumotlar bazasida havola qilingan ilmiy tadqiqot ishlarining hozirgi holati 2-rasmda ko'rsatilgan.



**2-rasm. Science Direct ma'lumotlar bazasida havola qilingan ilmiy tadqiqot ishlari**

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarining soni 2016-yilda eng ko'p bo'lib, keyin kamaygan. 2021-yilda chop etilgan maqolalar soni 2016-yil bilan taqqoslangan, ularning soni 40% ga kamaygan. Boshqa tomondan qoziqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari va chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv

qurilmasiga bag'ishlangan tadqiqotlar hali ham mashhur. Ushbu tahlillarni uchta asosiy kategoriyaga ajratish mumkin. Birinchi kategoriyadagi tahlillar chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini modellashtirish va loyihalash hamda qoziqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini termik sinashda bag'ishlangan [3-7]. Ikkinchi kategoriyadagi tahlillar energiyani akkumulyatsiyalovchi GIN li gibrid tizimlar [8, 9] va quyosh energiyali GIN lari [10, 11] bilan bog'liq. Uchinchi kategoriyadagi tahlillar chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari bilan bog'liq tadqiqot ishlari [12, 13]. Yer osti issiqlik almashinuv qurilmasi va yer o'rtasidagi issiqlik uzatishni modellashtirish darajasi ham shunga o'xshash bo'lib, modellashtirish tajribasini bir-biri bilan taqqoslash mumkin. Shuningdek, GIN ning turli shakllari to'g'risidagi bilim muhandislar uchun ham juda foydalidir. Analitik modellashtirish chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining ko'pgina analitik usullari yoki chiziqlik issiqlik manbaiga [14] yoki silindri issiqlik manbaiga asoslangan. Yakka quduq issiqlik o'tkazuvchanligining cheksiz chiziqlik manbaini birinchi analitik yechimi Ingersol va Plasslar [15] tomonidan taklif etilgan bo'lib, u keyingi loyihalash dasturini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1986-yilda Eskilson [16] quduqli tizimni termik tahliliga superpozitsiya tamoyilini kiritdi. O'zgarmas issiqlik oqimli bitta quduqdagi harorat tebranishlari asosida superpozitsiya tamoyilidan foydalanib, isitish sovitishga o'zgaruvchan yuklama sharoitida bir nechta quduqda haqiqiy harorat tebranishini olish mumkin edi. Superpozitsiyaning ushbu usuli kichik vertikal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining muhandislik loyihalarida keng qo'llaniladi, buning sababi usulni fizik mohiyatini tushunarligi va hisoblashni osonligidir [6-17]. Issiqlik manbai ham chiziqlik ham silindrik bo'lgan modellar quduq devoridagi bir jinsli issiqlik oqimini va chuqur quduqlarda tuproqning bir jinsli issiqlik xususiyatini aniqlash imkonini beradi, bu esa haqiqiy holatdan og'ishga chetlanishga olib keladi. Abdelaziz va boshqalar chekli chiziqlik manba modeliga va superpozitsiya tamoyiliga asoslanib, turli qatlamlarning ichida harorat reaksiyasini hisoblash uchun yangi ko'p qatlamli FLS modelini taklif etishdi. Ko'p qatlamli modelda GIN bir nechta segmentlarga ajratilgan bo'lib, belgilangan nuqtadagi tuproq haroratining reaksiyasining ushbu barcha segmentlarning alohida hissalarini umumlashtirish yo'li bilan aniqlash mumkin. Ko'p qatlamli modelning baholovchi natijalar, chekli elementlar usuli yordamida olingan natijalar bilan yaxshi mos keladi. Ko'p qatlamli model bo'yicha o'lgangan haroratlar, bir jinsli tuproq uchun chekli elementlar modeli bo'yicha o'lgangan haroratlar bilan taqqoslanadi. Natijalarga ko'ra, haroratni o'lgashdagi noto'g'ri baholash 10 dan 25% gacha oraliqda bo'lib, bunga sabab tuproqni bir jinsli qabul qilinganligidir [18]. Pan va boshqalar [19] ko'p qatlamli FSL modelga o'xshash bo'lgan silindrik issiqlik manbali ko'p qatlamli modelni taklif etishdi. Ushbu model qatlamsimon tuproqda vertikal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari uchun mo'ljallangan va integral o'zgartirish usulidan foydalanib, tuproqning harorat reaksiyasini analitik ifodalash imkonini beradi. Natijalarga ko'ra, tuproq qatlamlari o'rtasidagi issiqlik xususiyatlarini turliligicha hisobiga qatlamlar chegaralari orqali vertikal bo'yicha issiqlikni qo'shimcha uzatilishi kuzatilgan. Yuqorida keltirilgan analitik modellarda yer osti suvlari oqimining yer osti issiqlik almashinuv qurilmalariga termokonvektiv ta'sirini inobatga olmaydi. Haqiqatan, yer osti suvlarini mavjud bo'lishi yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarining issiqlik xarakteristikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [20]. Diao va boshqalar [21] yer osti suvlarining ta'siridan yuzaga keladigan konvektiv samaralarni hisoblash uchun harakatlanuvchi cheksiz chiziqlik manba modelini taklif etishdi va suv bir tekis o'zgaruvchan cheksiz bir jinsli g'ovak muhitda tuproq harorati reaksiyasining analitik yechimini olishdi. Satton va boshqalar [22] harakatlanuvchi chiziqlik manbali yechim asosida yer osti suvlarining konveksiyasining inobatga oluvchi tuproq qarshiligi qiymatini baholash modelini ishlab chiqishgan. Birlashtirilgan qiymat yerga ulashdan faqatgina o'tkazuvchanlik hisobiga farq qiladi.

### **Tahlil**

Chiziqlik manbaning an'anaviy modeli bilan taqqoslaganda yechim shuni ko'rsatadiki, yer osti suvlarining oqimi issiqlik uzatish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Keyinchalik, o'qiy issiqlik uzatish va yer osti suvlarining oqimini inobatga olish uchun Molina-Xiraldo va boshqalar [23] cheksiz

chiziqli harakatlanuvchi manbali modelni taklif etishdi. Ushbu model asosan uzoq muddatli modellashtirish uchun ahamiyatli bo‘lib, cheksiz chiziqli harakatlanuvchi manbali model bilan chegaralanishini bartaraf etdi. Yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari turli gidrogeologik va termik xususiyatli quduqlarning chuqurligi bo‘yicha turli qatlamda joylashtirilishi mumkin. Shunday qilib qatlamlar o‘rtasidagi yer osti suvlari oqimidagi farq katta bo‘lganda GIN tizimlarning uzoq muddatli samaradorligini baholash uchun tuproqning bir jinsli emasligini inobatga olish zarur. Vertikal yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari uchun ko‘p plastli geologiyalardagi yer osti suvlarining ta‘sirini inobatga oluvchi takomillashtirilgan modellar ishlab chiqildi [24, 25]. Natijalarni ko‘rsatishicha yer osti suvlarining yuqori tezligi qo‘shni qatlamlarning ichidagi issiqlikdan o‘zaro ta‘sirlashishni susaytiradi. Yer osti suvlari oqimining tezligi yuqori bo‘lgan holatda qatlam o‘rtasida tuproqni bir jinslili bajariladi. Teskari holatda, o‘tish sharoitlarida, ayniqsa qatlam chegaralarida ko‘p qatlamli yondashuv mos keladi. Yer osti suvlari oqimli MFLS modeliga muvofiq, bir nechta nuqtalardagi tekshirilgan harorat tebranish bilan yer osti issiqlik almashinuv qurilmasi orqali o‘tayotgan yer osti suvlari oqimining yo‘nalishi va tezligini aniqlash uchun teskari hisoblash metodologiyasi tadqiqot qilingan [26]. Hisoblashni teskari usulini qo‘llashning xususiyati shundaki, u yer osti suvlarining tezligini aniq qiymatini olishni ta‘minlaydi, keyin yer osti suvlarining baholangan parametrlaridan foydalanib, yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarida issiqlik uzatish samaradorligini tahlil qilish mumkin. Pan va boshqalar [27] tomonidan uchta turli yuqori chegaraviy shartli yangi analitik model ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu model yordamida chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmasida harorat tebranishini tadqiq qilish mumkin. Natijalarga ko‘ra, Dirixle chegaraviy shartlaridan foydalanilganda chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmasida hisoblangan o‘rtacha harorat, Neyman va Robin chegaraviy shartlaridan foydalanilganda qaraganda 14,1% va 8,5% ga kichik.

### Munozara

Sonli modellashtirish yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarida issiqlik uzatishni tadqiqot qilishning sonli usullari uzlukli sonli sxemalar asosidagi chekli elementlar usuli yoki chekli farqlar usulida olib boriladi. Kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan sonli hisoblashlar issiqlik uzatishni tadqiqot qilishning asosiy vositasiga aylandi va yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini nazariy tadqiqot qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish juda ham aniq holatni, ya‘ni tuproqning bir jinsli emasligini inobatga oladi va qisqartirilgan shartlar qabul qilmasdan chegaraviy shartlar asosida tadqiqot olib borishni ta‘minlaydi. Birinchi uch o‘lchamli sonli model Xellstrem [28] tomonidan taklif etilgan va u uch qismdan iborat: quduq ichidagi issiqlik almashinuv, alohida quduqlarning mahalliy issiqlik almashinuv va alohida quduqlarni birlashtiruvchi global model. Keyin model TRNSYS dasturida ishlab chiqildi [29]. So‘nggi yillarda turli soddalashtirilgan shartli sonli modellar ishlab chiqildi, masalan yer osti suv oqimlarining harorat gradient modeli [30] va tog‘ jinsi va tuproqning turli qatlamlari modeli [31].

Yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari parallel ulangan holatda aniqlikni saqlagan holatda hisoblash vaqti qisqarishini ta‘minlovchi globus sonli modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu model quduq ichidagi issiqlik almashinuvini 1D –modelini va quduq tashqarisidagi issiqlik almashinuvining 3D- modellarini birlashtirilgani hisoblanadi [32]. CFD model asosida koaksial kichik chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalari sonli tadqiqot qilingan bo‘lib, ushbu tadqiqotda bir nechta konstruktiv parametrlarni, kirishdagi sarfni kirayotgan suyuqlikning harorati, ichki quvur materiali va tashqi quvur diametrini issiqlik uzatish xarakteristikasiga ta‘siri o‘rganilgan [33]. Shunday qilib, muhandislik maqsadlarida yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini loyihalash uchun sonli usullardan foydalanish, uzunlik va vaqt masshtablari kuchli farqlanganligi hisobiga juda noqulay hisoblanadi, shuningdek, sonli usullar uzoq vaqt hisoblashni talab etadi. G- funksiya va qisqa vaqtli qadamli model. Tuproqning harorat reaksiyasini hisoblashni soddallashtirish uchun Eskilson va Klaesson [34-36] G- funksiyaning yangi konsepsiyasini kiritdi. Ushbu funksiya tebranishning o‘lchamsiz harorat koeffitsiyenti sifatida aniqlanadi. U quduq devorining harorati va quduqni yerdan chuqurligigacha issiqlikning haqiqiy koeffitsiyenti orqali bog‘langan. Ushbu gibrid model analitik va

sonli yechimlarning birlashtirilganidir. O'zgarmas boshlang'ich va chegaraviy shartli bir jinsli tuproqda yakka quduq uchun koordinataning radial-o'qiy sistemasida nobarqaror chekli farqlar tenglamalaridan foydalanib ikki o'lchamli sonli hisoblash o'tkazilgan. Yechim bazaviy pog'onali issiqlik impulsidan foydalanib olingan. Keyin quduq maydonining yakka impulsiga reaksiyasi G-funksiya yordamida ifodalangan. Keyinchalik Yavuztyurk va Spitlerlar [37] chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarida nobarqaror issiqlik uzatishni modellashtirish uchun qisqa vaqtli qadamli modelni taqdim etishgan bo'lib, uning aniqligi soat yoki kam vaqtga yetadi. Sonli natijalar qisqa vaqt qadamida tebranish koeffitsiyenti orqali ifodalangan. Prieto va Chimminolar [38] ekvivalent quduq usullarini ishlab chiqishdi, ushbu model bir necha soniyada mingdan ortiq quduq konlari uchun haroratni tebranish funksiyasini hisoblash imkonini beradi. Keyinchalik ketma-ket va parallel ulangan quduqlar aralash joylashtirilgan quduq maydonining G-funksiyasini hisoblashning yarim analitik usuli taqdim etildi [39]. Yuqorida ta'kidlanganidek, chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini modellashtirishni eng ko'p ishlatiladigan metodologiyasi bu quduqda issiqlik almashinuv zonasini ikkita qismga ajratishdir: quduq ichidagi barqaror issiqlik almashinuv qismi va quduq tashqarisidagi nobarqaror issiqlik almashinuv qismi uzoq muddatli istiqbolida quduq ichidagi issiqlik jarayonini, tashqi tuproq bilan taqqoslaganda o'lchami va issiqlik sig'imini kichikligi hisobiga barqaror hisoblash mumkin. So'nggi o'n yillikdagi tadqiqotlar yer osti issiqlik almashinuv qurilmasining qisqa vaqtli reaksiyasining tadqiqotiga bag'ishlangan bo'lib, ular gibrid GIN larini optimal konstruksiyasini aniqlashga, joylardagi tebranishini sinashga, soatbay modellashtirish va ishni optimal boshqarishga qaratilgan [40]. Elektrik o'xshashlik yondashuvidan foydalanib, quduqning issiqlik sig'imini hisoblash uchun takomillashtirilgan "quvvatlar qarshiligi modeli" ishlab chiqildi [41]. Rostlangan quvvatli va termik qarshilikli yangi model nobarqaror holatda issiqlik uzatish masalasini yechish uchun ishlatiladi. Yer osti issiqlik almashinuv qurilmasidagi issiqlik jarayonlarini tadqiqot qilish uchun Li va boshqalar kompozit muhitli chiziqli manba modelini taklif etishdi [42]. Ushbu model nafaqat eritma issiqlik sig'imining ta'sirini, balki tuproq va eritma o'rtasidagi farqni ham inobatga oladi, shuningdek U-simon quvurlarning turli konfiguratsiyalarini modellashtirish imkonini beradi.

### Xulosa

Ushbu tahliliy maqolada vertikal quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmalarini modellashtirish bo'yicha erishilgan so'nggi yutuqlar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Chuqur quduqli yer osti issiqlik almashinuv qurilmasidagi issiqlik uzatish jarayonlarini to'liq tadqiqot qilish uchun aniqlik darajasi turlicha bo'lgan analitik modellar bilan taqqoslanganda muhandislik loyihalarida kam qo'llanishi asoslandi, uning o'rniga g – funksiyadan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

### Adabiyotlar

- [1] J.W. Lund, A.N. Toth, Direct utilization of geothermal energy 2020 worldwide review, *Geothermics* 90 (2021) 101915.
- [2] Khamraev S.I, Ibragimov U.Kh, Kamolov B.I. Removal of hydrodynamic lesions of a heated floor with a solar collector // APEC-V-2022 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1070(2022) 012018 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/1070/1/012018.
- [3] Uzakov G. N., Charvinski V. L., Ibragimov U. Kh., Khamraev S.I., Kamolov B. I. (2022) Mathematical Modeling of the Combined Heat Supply System of a Solar House. *Energetika. Proc. CIS Higher Educ. Inst. and Power Eng. Assoc.* 65 (5), 412–421. <https://doi.org/10.21122/1029-7448-2022-65-5-412-421>.
- [4] Y. Yuan, X. Cao, L. Sun, et al., Ground source heat pump system: a review of simulation in China, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 16 (9) (2012) 6814–6822.
- [5] H. Yang, P. Cui, Z. Fang, Vertical-borehole ground-coupled heat pumps: a review of models and systems, *Appl. Energy* 87 (1) (2010) 16–27.

- [6] M. Li, A.C.K. Lai, Review of analytical models for heat transfer by vertical ground heat exchangers (GHEs): a perspective of time and space scales, *Appl. Energy* 151 (2015) 178–191.
- [7] E. Atam, L. Helsen, Ground-coupled heat pumps: part 1 –Literature review and research challenges in modeling and optimal control, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 54 (2016) 1653–1667.
- [8] N. Zhu, P. Hu, L. Xu, et al., Recent research and applications of ground source heat pump integrated with thermal energy storage systems: a review, *Appl. Therm. Eng.* 71 (1) (2014) 142–151.
- [9] S.K. Soni, M. Pandey, V.N. Bartaria, Hybrid ground coupled heat exchanger systems for space heating/cooling applications: a review, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 60 (2016) 724–738.
- [10] G. Nouri, Y. Noorollahi, H. Yousefi, Solar assisted ground source heat pump systems a review, *Appl. Therm. Eng.* 163 (2019) 114351.
- [11] S.K. Shah, L. Aye, B. Rismanchi, Seasonal thermal energy storage system for cold climate zones: a review of recent developments, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 97 (2018) 38–49.
- [12] I. Tomac, M. Sauter, A review on challenges in the assessment of geomechanical
- [13] rock performance for deep geothermal reservoir development, *Renew. Sustain. Energy Rev.* 82 (2018) 3972–3980.
- [14] M.R.A. Sapinska-Sliwa, A. Gonet, et al., Deep borehole heat exchangers - a conceptual and comparative review, *Int. J. Air Cond. Refrig.* 24 (1) (2016).
- [15] H. Zeng, N. Diao, Z. Fang, A finite line-source model for boreholes in geothermal heat exchangers, *Heat Transf. Asian Res.* 31 (7) (2002) 558–567.
- [16] L.R. Ingersoll, H.J. Plass, Theory of ground pipe heat source for the heat pump, *Heat. Pip. Air Cond.* 20 (1948) 4.
- [17] P. Eskilson, Superposition borehole model, Manual for Computer Code, University of Lund, Lund, Sweden, 1986.
- [18] J. Luo, J. Rohn, W. Xiang, et al., A review of ground investigations for ground source heat pump (GSHP) systems, *Energy Build.* 117 (2016) 160–175.
- [19] S.L. Abdelaziz, T.Y. Ozudogru, C.G. Olgun, et al., Multilayer finite line source model
- [20] for vertical heat exchangers, *Geothermics* 51 (2014) 406–416.
- [21] A. Pan, J.S. McCartney, L. Lu, et al., A novel analytical multilayer cylindrical heat source model for vertical ground heat exchangers installed in layered ground, *Energy* 200 (2020).
- [22] Z. Zhao, Y.F. Lin, A. Stumpf, et al., Assessing impacts of groundwater on geothermal heat exchangers: a review of methodology and modeling, *Renew. Energy* 190 (2022) 121–147.
- [23] N. Diao, Q. Li, Z. Fang, Heat transfer in ground heat exchangers with groundwater advection, *Int. J. Therm. Sci.* 43 (12) (2004) 1203–1211.
- [24] M.G. Sutton, D.W. Nutter, R.J. Couvillion, A ground resistance for vertical bore heat exchangers with groundwater flow, *J. Energy Resour. Technol.* 125 (3) (2003) 183–189.
- [25] N. Molina-Giraldo, P. Blum, K. Zhu, et al., A moving finite line source model to simulate borehole heat exchangers with groundwater advection, *Int. J. Therm. Sci.* 50 (12) (2011) 2506–2513.
- [26] J. Hu, An improved analytical model for vertical borehole ground heat exchanger with multiple-layer substrates and groundwater flow, *Appl. Energy* 202 (2017) 537–549.
- [27] S. Erol, B. Francois, Multilayer analytical model for vertical ground heat exchanger with groundwater flow, *Geothermics* 71 (2018) 294–305.
- [28] W. Zhang, H. Yang, N. Diao, et al., Exploration on the reverse calculation method of groundwater velocity by means of the moving line heat source, *Int. J. Therm. of vertical water flow, Renew. Energy* 172 (2021) 1046–1062.
- [29] A. Pan, L. Lu, Y. Tian, A new analytical model for short vertical ground heat exchangers with Neumann and Robin boundary conditions on ground surface, *Int. J. Therm. Sci.* (2020) 152.
- [30] G. Hellström, Ground heat storage: thermal analysis of duct storage system, in: *Physics & Astronomy*, University of Lund, Lund, Sweden, 1991, p. 262.

- [31] S.A. Klein, et al., TRNSYS Manual, A Transient Simulation Program, Solar Engineering Laboratory. University of Wisconsin-Madison, Madison, 1996.
- [32] I.I. Stylianou, S. Tassou, P. Christodoulides, et al., Modeling of vertical ground heat exchangers in the presence of groundwater flow and underground temperature gradient, *Energy Build.* 192 (2019) 15–30.
- [33] K. Chen, J. Zheng, J. Li, et al., Numerical study on the heat performance of enhanced coaxial borehole heat exchanger and double U borehole heat exchanger, *Appl. Therm. Eng.* 203 (2022) 117916.
- [34] M. Chwieduk, New global thermal numerical model of vertical U-tube ground heat exchanger, *Renew. Energy* 168 (2021) 343–352.
- [35] G. Li, J. Yang, X. Zhu, et al., Numerical study on the heat transfer performance of coaxial shallow borehole heat exchanger, *Energy Built Environ.* 2 (4) (2021) 445–455.
- [36] P. Eskilson, J. Claesson, Thermal Analysis of Heat Extraction Boreholes, University of Lund, 1987 PhD Doctoral Thesis.
- [37] P. Eskilson, J. Claesson, Simulation model for thermally interacting heat extraction boreholes, *Numer. Heat Transf.* 13 (2) (1988) 149–165.
- [38] J. Claesson, P. Eskilson, Thermal analysis of heat extraction boreholes, in: *Proceedings of the 3rd International Conference on Energy Storage for Building Heating and Cooling ENERSTOCK 85*, Toronto (Canada), Public Works, 1985, pp. 222–227. September 22-26.
- [39] C. Yavuzturk, J.D. Spitler, A short time step response factor model for vertical ground loop heat exchangers, *ASHRAE Trans.* 105 (2) (1999) 475–485.
- [40] C. Prieto, M. Cimmino, Thermal interactions in large irregular fields of geothermal boreholes: the method of equivalent boreholes, *J. Build. Perform. Simul.* 14 (4) (2021) 446–460.
- [41] M. Cimmino, Semi-analytical method for g-function calculation of bore fields with series and parallel-connected boreholes, *Sci. Technol. Built Environ.* 25 (8) (2019) 1007–1022.
- [42] M. Li, A.C.K. Lai, Analytical model for short-time responses of ground heat exchangers with U-shaped tubes: model development and validation, *Appl. Energy* 104 (2013) 510–516.
- [43] A. Zarrella, M. Scarpa, M. De Carli, Short time step analysis of vertical groundcoupled heat exchangers: the approach of CaRM, *Renew. Energy* 36 (9) (2011) 2357–2367.
- [44] J. Wei, L. Wang, L. Jia, et al., A new analytical model for short-time response of vertical ground heat exchangers using equivalent diameter method, *Energy Build.* 119 (2016) 13–19.

## IQTISODIYOT FANLARI / ECONOMIC SCIENCES

UO‘K 338.478.33:51

### MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI KOOPERATSIYASI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

**Ergashev Raxmatulla Xidirovich**-iqtisodiyot fanlari doktori, professor,  
ORCID: 0009-0008-9794-9859, E-mail: [e\\_r\\_x\\_55@rambler.ru](mailto:e_r_x_55@rambler.ru)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Meva-sabzavot mahsulotlari klaster-kooperatsiya tizimini tashkil etish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosi hozirgi qishloq xo‘jaligi amaliyotida ularni meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari agroklastlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari, shuningdek integratsiya tizimlari faoliyatlarida keng foydalanishni hisobga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish hamda aholini meva-sabzavotga bo‘lgan talabini qondirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Ushbu muammoni hal qilishning asosiy turlaridan biri bu agroklastlar, dehqon va fermer xo‘jaliklarini, meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiya tizimiga biriktirgan holda iqtisodiy samaradorlikka erishish shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishda integratsiya tizimi faoliyatidan keng foydalanishdir.*

*Tadqiqot natijalariga ko‘ra, meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirish jarayoni, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni kooperatsiya asosida tashkil etish agroklastlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun yuqori daromadli va samarali hisoblanadi.*

*Meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasini atroflicha o‘rganib, uning samaradorlik ko‘rsatkichlari kuchini qayta tiklash va aholi farovonligini oshirish uchun shart-sharoitlar eng yaxshilarini yaratishda meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirish jarayoni, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlari kooperatsiya asosida tashkil etishni namoyon qilish, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish samaradorligi oshishiga olib keladi.*

***Kalit so‘zlar:** meva-sabzavot, mahsulot, kooperatsiya, samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, agroklast, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, qayta ishlash, integratsiya, istiqbol, aholini ta‘minlash.*

УДК 338.478.33:51

### КООПЕРАЦИЯ ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ

**Эргашев Рахматулла Хидирович**-доктор экономических наук, профессор

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

***Аннотация.** Проблемой повышения экономической эффективности плодоовощной кооперации с учетом их широкого использования в деятельности агрокластеров плодоовощных кооперативов, фермеров и фермерских хозяйств, а также интеграционных систем является создание системы плодоовощной кластерной кооперации в современной сельскохозяйственной практике. В целях совершенствования производства и удовлетворения спроса населения на плодоовощную продукцию разработаны предложения и рекомендации.*

Одним из основных путей решения данной проблемы является достижение экономической эффективности за счет подключения агрокластеров, фермеров и фермерских хозяйств к кооперативной системе плодоовощной продукции, а также широкого использования деятельности интеграционной системы в дистрибуции плодоовощной продукции.

По результатам исследования организация экономических отношений, связанных с процессом выращивания плодоовощной продукции, ее хранения, переработки и реализации на основе кооперации, является высокорентабельной и эффективной для агрокластеров, фермеров и фермерских хозяйств.

Тщательное изучение кооперации плодоовощной продукции и создание наилучших условий для восстановления показателей ее эффективности и улучшения благосостояния населения, процессов выращивания плодоовощной продукции, хранения, переработки и реализации, демонстрация организации, основанной на экономической и социальной кооперации, приводит к повышению эффективности экономического производства.

**Ключевые слова:** плодоовощная продукция, продукт, кооперация, эффективность, социально-экономическая среда, агрокластер, сельское хозяйство, продовольствие, переработка, интеграция, перспектива, обеспечение населения.

UDC 338.478.33:51

## COOPERATION OF FRUIT AND VEGETABLE PRODUCTS AND WAYS TO IMPROVE ITS EFFICIENCY

**Ergashev, Rakhmatulla Khidirovich**- Doctor of Economic Sciences, professor

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** *The problem of increasing its economic efficiency based on the establishment of a fruit and vegetable cluster cooperation system in current agricultural practice is the economic efficiency of fruit and vegetable cooperation, taking into account their wide use in the activities of fruit and vegetable cooperatives agroclusters, farmers and farms, as well as integration systems. Proposals and recommendations have been developed in order to improve the production and to satisfy the population's demand for fruits and vegetables.*

*One of the basic ways to solve this problem is to achieve economic efficiency by connecting agroclusters, farmers and farms to the cooperative system of fruit and vegetable products, as well as the wide use of the activities of the integration system in the distribution of fruit and vegetable products.*

*According to the results of the research, the organization of economic relations related to the process of growing fruit and vegetable products, storage, processing and sale on the basis of cooperation is highly profitable and effective for agroclusters, farmers and farms.*

**Keywords:** *fruits and vegetables, product, cooperation, efficiency, socio-economic environment, agrocluster, agriculture, food, processing, integration, perspective, provision of the population.*

### Kirish

Meva-sabzavotchilik sohasining rivojlanishiga va kengayib borishiga qaramay, amaliyotda ularni meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari agroklasterlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari, shuningdek integratsiya tizimlari faoliyatlarida keng foydalanish bo‘yicha ilmiy va amaliy yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmagan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni, jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va ularni saqlash, jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport hajmi va geografiyasini kengaytirishda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari kabi masalalarga katta ahamiyat berilmoqda. Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi va agroklastlar sohasida normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Bular, xususan, “Kooperatsiya to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi Qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardir.

O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari asosan xususiy tarmoqda yetishtirilayotgan bo‘lib, uning 70-80 foizi dehqon va fermer xo‘jaliklari zimmasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bog‘dorchilik sohasidagi yirik tadbirkorlik subyektlarining soni ortishi meva-sabzavot yetishtiruvchi xususiy tarmoq o‘rtasida raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday tizimda mavsumiy pishib yetiladigan va transportda tashishga ko‘p hollarda noqulay bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari juda ko‘p sonli, joylashuvi jihatidan tarqoq hamda hajmi kichik dehqon va fermer xo‘jaliklarining raqobat kurashida ishtirok qilishlari uchun ularning kooperatsiyaga birlashishlari muhim ahamiyat kasb qiladi.

Meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarini tashkil etishdan maqsad – kooperativ a‘zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda ishlab chiqarish faoliyatini yuritish. Majburiy sharti – ularning mulkiy pay ulushlarini birlashtirish va kooperativ faoliyatida shaxsan ishtirok etishdan iboratdir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalari ko‘plab xorijlik olimlarning, xususan, A.V.Chayanov [1], I.N. Buzdalov [2], T.Buzina [3] kabi va boshqa agrar soha iqtisodchi olimlari ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalari A.I.Allaxverdiyev [4], N.V.Yermalinskaya va Ye.A. Kojevnikov[5] kabi olimlar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining umumiy muammolarini o‘rganish bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan R.M.Xusanov [6], Q.A.Choriyev [7] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlarda meva-sabzavot mahsulotlarning iqtisodiy samaradorlik masalalari batafsil ko‘rib chiqilgan, samaradorlik darajasini baholash usullari, uni oshirish yo‘nalishlari va yo‘llari o‘rganilgan. Biroq, ko‘plab muammolar muhokama qilinganiga qaramay, olimlar meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari masalasida bir fikrga kela olishganlari yo‘q. Meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasi muammosini yanada chuqurroq o‘rganish meva-sabzavotni qayta ishlash va saqlash korxonalarining rivojlanish zaxiralarini har tomonlama iqtisodiy baholashni va meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishning oqilona ilmiy va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu holat mazkur yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi, hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasi va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘ziga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, daladan dasturxonga qadar zanjirini tashkil etish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi.

## Tahlil va natijalar

Meva-sabzavot mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik resurslarini ishlab chiqarish jarayonida-yer, mehnat, texnika va boshqa moddiy vositalar olingan natijalarning ishlab chiqarilgan xarajatlar bilan nisbatlarini ifodalaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichi-ish kuchini qayta tiklash va xalq farovonligini oshirish uchun shart-sharoitlar eng yaxshilarini yaratishda namoyon bo'ladi (qishloqda mehnat sharoitlari va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish, haqiqiy ish haqini oshirish va h.k.).

Meva-sabzavot mahsulotlarining ishlab chiqarish samaradorligini hisobga olgan holda, quyidagi samaradorlik turlarini ajratish odatiy holdir (1-rasm).



1-rasm. Meva-sabzavotchilikda samaradorlik turlari<sup>1</sup>

**-texnologik-ishlab chiqarish** -ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Bu ishlab chiqarish jarayonida yer, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi;

**-iqtisodiy ishlab chiqarish** – ishlab chiqarish va texnologik samaradorlik iqtisodiy mexanizmining umumiy ta'sirini tavsiflaydi, va qiymat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi (ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi va sof daromad, foyda va boshqalar);


– **ijtimoiy-iqtisodiy-ishlab chiqarish**-iqtisodiy samaradorlikdan olingan va umuman ish samaradorligini tavsiflaydi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: yer maydoni birligiga ishlab chiqarish qiymati, foyda normasi, rentabellik darajasi va boshqalar;

**- ekologik**- atrof-muhit uchun agrofirma sanoati ekologik ta'sirni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflaydi.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligi mohiyatini ishlab chiqarishni mezon va ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin. Mezon samaradorligi baholanadigan xususiyatdir. Bu maqsadga erishishning eng samarali yo'li, vositasiga ishora qiladi ishlab chiqarishni rivojlantirishning muqobil variantlari o'lchanadi va tanlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqildi (2-rasm).

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**2-rasm Meval sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari<sup>2</sup>**

Quyidagi jadval materiallaridan meval-sabzavot mahsulotlari samaradorligini baholash metodikasi taklif etilgan bo'lib, integratsiyalashgan ishlab chiqarish alohida bosqichlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash yakuniy mahsulot ishlab chiqarish (meval-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish, xomashyo, tayyor mahsulotni saqlash, qayta ishlash va sotish).

**Jadval**

**Qashqadaryo viloyatida meval-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi va uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tahlili (2022-yil)<sup>3</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	Usullar		Farqi (+; -)
		An'anaviy*	Kooperatsiya**	
<b>1. Meval-sabzavot mahsulotlari yetishtirish</b>				
1.1	Ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so'm	192,7	1280,0	1087,3
1.2	Mahsulot sotish hisobidan olingan tushum sifat va muddatlilik tamoyilini hisobga olgan holda, mln. so'm	480,3	5184,0	4703,7
1.3	Foyda (+), mln. so'm Zarar (-), mln. so'm	287,6	3904,0	3616,4

<sup>2-3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Izoh. \*Yakkabog' tumani "Qayumov Salim Zafar o'g'li" fermer xo'jaligi.

\*\*Kitob tumani "Panji Kishmishzorlar" kooperativi ma'lumotlarida asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1.4	Rentabellik darajasi, %	149,2	305,0	2 marta oshgan
<b>2. Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash</b>				
2.1	Mahsulotlarni saqlash quvvat, tonna	80,0	720,0	640
2.2	Mahsulotlarni saqlashdagi yo'qotishlar, tonna	1,2	11,5	10,3
2.3	Mahsulotlarni saqlash xarajatlari, mln. so'm.	3,2	36	32,8
2.4	Mahsulotlarni saqlashga qo'yilgan mahsulot qiymati, mln so'm	320,0	3600,0	3280
2.5	Mahsulotlarni jami saqlash xarajatlari va meva-sabzavot mahsulotlarning qiymati, ming so'm	323,2	3636,0	3312,8
2.6	Sotilgan mahsulotlar va sotish davrida yo'qotishlarni hisobga olgan holda, tonna	78,8	708,5	629,7
2.7	Sotilgan mahsulotlar qiymati va saqlash, sifatini va sotish muddatlarini hisobga olgan holda, ming so'm	630,4	10627,5	9997,1
2.8	Mahsulotlarni saqlashdan olingan foyda, ming so'm	307,2	6991,5	6684,3
2.9	Rentabellik darajasi, %	95,0	192,3	97,3
<b>3. Meva-sabzavot mahsulotlarni qayta ishlash</b>				
3.1	Qayta ishlangan mahsulotlar, tonna	40	160	120
3.2	Mahsulotlar xomashyo qiymati sotish muddatini hisobga olgan holda, mln so'm.	60,0	208,0	148
3.3	Tayyorlangan sharbatlar, tonna	12,0	48,0	36
3.4	Qayta ishlash xarajatlari (xomashyodan tashqari), mln so'm.	21,1	84,4	63,3
3.5	Sharbat ishlab chiqarish xarajatlari xomashyo xarajatlarini hisobga olgan holda, mln so'm	81,1	292,4	211,3
3.6	Ulgurji narxlarda sharbat qiymati, mln so'm	192,0	768	576
3.7	Qayta ishlashdan olingan foyda, ming so'm	110,9	475,6	364,7
3.8	Rentabellik darajasi, %	136,7	162,6	1,19 marta oshgan
<b>4. Meva-sabzavot mahsulotlarini sotish</b>				
4.1	Yangi mahsulotlar sotishi mo'ljallangan qismi, ming tonna	38,8	548,5	509,7

4.2	Mahsulotlarni sifat va sotish muddatlari bo'yicha mahsulotlar qiymati, mln so'm	620,8	8776,0	8155,2
4.3	Mahsulotlarni sotish xarajatlari, mln so'm	19,8	279,7	259,9
4.4	Mahsulotlarning chakana narxi sotish muddatlari bo'yicha, mln so'm	310,4	4388,0	4077,6
4.5	Mahsulotlarning sharbatini sotish xarajatlari, ming so'm	3,4	9,6	6,2
4.6	Mahsulotlarning sharbatining chakana narxdagi qiymati, mln so'm	168,0	672,0	504
4.7	Mahsulotlarning sotishdan olingan foyda yoki zarar, mln so'm	374,1	4478,3	4104,2
4.8	Rentabellik darajasi, %	51,6	769,8	14,9 marta oshgan
<b>5. Meva-sabzavot kooperatsiyasi</b>				
5.1	Yakuniy mahsulot qiymati, mln. so'm	478,4	5060,0	4581,6
5.2	Mehnat unumdorligi (o'rtacha bir kishiga ishlab chiqilgan mahsulot), mln. so'm	68,3	88,8	20,5
5.3	Fond qaytimi bir so'm asosiy vositaga yakuniy mahsulotning nisbati	1,51	1,62	0,11
5.4	Tarmoqlararo mahsulot tannarxi, ming so'm	540,2	1689,7	1149,5
5.5	Jami foyda, mln. so'm	238,2	3370,3	3132,1
5.6	Kooperatsiyaning rentabellik darajasi, %	99,6	199,4	2 marta oshgan

Qashqadaryo viloyatida kooperatsiya tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi meva-sabzavotchilik fermer xo'jaliklarning paydo bo'lishi va holati hamda dinamikasini tahlil etadigan bo'lsak, 2018-yilda viloyat bo'yicha jami 23846 ta fermer xo'jaliklar faoliyat yuritishgan bo'lsa, 2019-yilda 26682 ta, 2020-yilda 28332 ta, 2021-yilda 21283 ta va 2022-yilda 25943 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda.

Xuddi shunday metodika bo'yicha boshqa turdagi mahsulotlarning iqtisodiy integratsiyalashgan samaradorligini aniqlash mumkin.

Meva-sabzavotchilikning samaradorligini oshirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ishlab chiqarishni intensivlashtirish darajasini oshirish;
- resurs tejaydigan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish;
- urug'chilikni takomillashtirish;
- yangi nasllarni yaratish ishlari;
- yuqori hosildor o'simlik navlarini va yuqori darajada ulardan foydalanish;
- meva-sabzavotchilik mahsulotlar xomashyosini kompleks qayta ishlash;
- meva-sabzavotchilik mahsulotlar, xomashyo yo'qotishlarni kamaytirish va boshqalar;
- meva-sabzavotchilikda marketing faoliyatini takomillashtirish;

- meva-sabzavotchilikda qayta ishlash atrofida xomashyo zonalarini optimallashtirish;
- meva-sabzavot ekinlarini oqilona joylashtirish;
- xomashyoni tashish xarajatlarini tejash;
- integratsiyalashgan holda moliyaviy-hisob-kitob markazini tashkil etishni shakllantirish, intra-industrial tashkil etilishini ta'minlash;
- meva-sabzavotchilik sohasidagi ishtirokchilar tarkibini optimallashtirish va h.k.

### Xulosa

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini kooperatsiya deganda hamkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari kooperativlarni yaratish tartibini, ularning huquqiy va tashkiliy shakllarini, resurslarni taqdim etishda ishlab chiqarish, munosabatlarni tashkil etish tartibini, mahsulot marketingini, soliq tizimlarini, davlat va kooperativlar o'rtasidagi munosabatlarni, kooperativlarni o'zaro munosabatlarni, mulkni begonalashtirishga qarshi huquqiy kafolatlarni mustahkamlashni belgilovchi qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmui sifatida tushunilishi kerak.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchining kooperatsiyasida quyidagi afzalliklari mavjud:

-tashkiliy, iqtisodiy resursi va boshqa chegaralari muayyan sanoat ko'lamini oshirish maqsadida ularda konsentratsiya va ixtisoslashuv jarayonlarini to'liq rivojlanishiga yo'l ochiladi;

-o'zaro manfaatli hamkorlik shaklida o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish natijasida ma'lum bir mahsulot turini ishlab chiqarishda iqtisodiyotning konsentratsiyasi va ixtisoslashuvi jarayonlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi;

- meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarishida turli mexanik, biologik, xo'jalik jarayonlari va operatsiyalari o'zining optimal rejimlari va o'lchamlariga ega bo'ladi;

- meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi optimal hajmi meva-sabzavot xomashyosini qayta ishlovchi korxonaning optimal hajmiga mos kelmasligi kerak, uning optimali turli omillarga, shu jumladan, turli xil xomashyolarni tashish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasini atroflicha o'rganib, uning samaradorlik ko'rsatkichlarini qayta tiklash va xalq farovonligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qishloqda mehnat sharoitlari va haqiqiy ish haqini oshirish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish hamda ekologik samaradorlik turlari ishlab chiqildi.

### Adabiyotlar

- [1] Чаянов А.В. Основные идеи и формы организации сельскохозяйственной кооперации – Москва. -1927. - 357 б.
- [2] Буздалов И.Н. Возрождение кооперации. – М.: Экономика. -1990. –81 с.
- [3] Бузина Т.С. Оптимизация взаимодействия участников в региональных агропромышленных кластерах / Т.С. Бузина, Я.М.Иванько. – Иркутск: Издательство Иркутский ГАУ, 2015. – 148 с.
- [4] Аллахвердиев А.И. Развитие форм кооперации в аграрном секторе АПК. –Москва: - Экономика. –2003. –10 с.
- [5] Н. В. Ермалинская, Е. А. Кожевников. Кооперация в агропромышленном комплексе: учеб. пособие / Беларусь, Гомел. : ГГТУ им. П. О. Сухого, 2016. – 191 с.
- [6] R.M.Husanov. Dehqon xo'jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. – T.: Cho'lpon, 2000. – 103 b.
- [7] Q.A.Choriyev. Fermer va dehqon xo'jaliklarini kooperatsiya jarayoniga jalb etish. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy agrar iqtisodiy jurnal. – Toshkent. – 2017. – №1. –22-30 b.

UO‘K 351/354

## DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA INSON RESURSLARINI BAHOLASHNING MAZMUN-MOHİYATI

**Xo‘jaqulov O‘ktam Rustam o‘g‘li**- mustaqil izlanuvchi, ORCID: 0009-0006-6617-3483,  
E-mail: [uktamkhujakulov@gmail.com](mailto:uktamkhujakulov@gmail.com)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi,  
Toshkent sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholash zaruriyati ilmiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Davlat organlarida inson resurslarini baholashning asosiy jihatlari tahlili qilingan. Shuningdek, inson resurslarini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida sohani raqamlashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Umuman olganda inson resurslari faoliyati samaradorligini baholashda ular tomonidan bajarilgan yoki ko‘rsatilgan ishlar hajmi; berilgan vazifalarning murakkabligi; xodim zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini xususiyatlari, hamda mehnat natijasini ham hisobga olish, shuningdek, ularning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Inson resurslarini baholash orqali tashkilotning istiqbol rejalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish natijasi aholining davlat organlari va idoralariga ishonchini oshirishi mumkin. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun inson resurslarini baholash orqali ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta‘minlash, ularni karyera trayektoriyasi bo‘yicha o‘stirib borishda aniq dastur-reja ishlab chiqarish maqsadga muvofiq.*

*Davlat organlari va idoralarida ilg‘or texnologiyalar tufayli ish joylari keskin o‘zgardi va shuning uchun inson resurslarini ochiq va shaffof baholash usuliga ehtiyoj seziladi. Umuman olganda, an‘anaviy baholash usullari ko‘proq shaxsning shaxsiy xususiyatlarini baholashga qaratilgan bo‘lsa, mehnat faoliyatini baholashning zamonaviy usullari xodimning yutuqlariga ko‘proq e‘tibor beradi. Boshqa tomondan, zamonaviy usullar xodimlarga baholash tizimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda davlat organlari va idoralarida inson resurslarini baholash jarayonini xolis qilish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi.*

*Davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholashda zamonaviy usullardan samarali foydalanish uchun tashkiliy-huquqiy asos yaratilganligi, xodim faoliyatini to‘g‘ri baholash usulini tanlash muhim hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** davlat boshqaruvi, inson resurslari, mehnat faoliyati, kompetensiya, inson resurslarini baholash, samaradorlik, natijadorlik.

УДК 351/354

## СОДЕРЖАНИЕ ОЦЕНКИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОРГАНАХ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

**Хужакулов Уктам Рустам угли**-самостоятельный соискатель

Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан,  
г. Ташкент, Узбекистан

***Аннотация.** В данной статье необходимость оценки человеческих ресурсов в органах государственного управления исследуется с научно-практической, научно-теоретической точек зрения. Проанализированы основные аспекты оценки человеческих ресурсов в*

государственных органах. Также на основе внедрения современных методов оценки человеческих ресурсов разработаны практические предложения и рекомендации по цифровизации отрасли.

В целом объем выполненной или показанной ими работы при оценке эффективности деятельности человеческих ресурсов; сложность поставленных задач; важно учитывать особенности должностных обязанностей возложенной на работника должности, а также результат работы, а также оценивать его профессиональные и управленческие компетенции.

Путем оценки человеческих ресурсов, разработки перспективных планов организации и результатов их реализации можно повысить доверие населения к государственным органам и учреждениям. В целях повышения эффективности деятельности органов государственного управления желательно обеспечить их личностное и профессиональное развитие путем оценки человеческих ресурсов, разработать четкую программу их карьерного роста.

Благодаря передовым технологиям в государственных органах и учреждениях резко изменились рабочие места, в связи с чем возникла необходимость в открытом и прозрачном методе оценки человеческих ресурсов. В целом традиционные методы оценки больше ориентированы на оценку личностных качеств человека, тогда как современные методы оценки трудовой деятельности уделяют больше внимания достижениям работника. С другой стороны, современные методы положительно влияют на систему оценки сотрудников. Сегодня необходимо эффективное использование цифровых технологий, чтобы сделать процесс оценки человеческих ресурсов беспристрастным в государственных органах и ведомствах.

Одним словом, важно создать организационно-правовую основу для эффективного использования современных методов оценки человеческих ресурсов в органах государственного управления, правильно выбрать метод оценки эффективности работы сотрудников

**Ключевые слова:** государственное управление, человеческие ресурсы, трудовая деятельность, компетентность, оценка человеческих ресурсов, эффективность, результативность

UDC 351/354

## THE CONTENT-ESSENCE OF HUMAN RESOURCES ASSESSMENT IN PUBLIC ADMINISTRATIVE BODIES

**Khujakulov, Uktam Rustam ugli**-Independent researcher

Academy of Public Administration under the President of the  
Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Uzbekistan

**Abstract.** *In this article, the need to evaluate human resources in state administration bodies is studied from a scientific and practical, scientific-theoretical point of view. The main aspects of human resources assessment in state bodies were analyzed. Also, based on the introduction of modern methods of evaluating human resources, practical proposals and recommendations for digitization of the industry have been developed.*

*In general, the volume of work performed or shown by them in evaluating the efficiency of human resources activity; complexity of given tasks; it is important to take into account the characteristics of the duties of the position assigned to the employee, as well as the result of work, as well as to evaluate their professional and management competencies.*

*By evaluating human resources, the development of future plans of the organization and the result of its implementation can increase the trust of the population in state bodies and agencies. In*

*order to increase efficiency in the activities of state administration bodies, it is desirable to ensure their personal and professional development by evaluating human resources, to develop a clear program for their career growth.*

*Due to advanced technologies in government bodies and offices, workplaces have changed dramatically, and therefore there is a need for an open and transparent method of evaluating human resources. In general, traditional methods of evaluation are more focused on the evaluation of personal characteristics of a person, while modern methods of evaluation of labor activity pay more attention to the achievements of the employee. On the other hand, modern methods have a positive effect on the evaluation system for employees. Today, effective use of digital technologies is required to make the evaluation process of human resources impartial in state bodies and offices.*

*In short, it is important to create an organizational and legal basis for the effective use of modern methods in the evaluation of human resources in public administration bodies, and to choose the right method of employee performance evaluation.*

**Keywords:** *public administration, human resources, labor activity, competence, evaluation of human resources, efficiency, effectiveness*

## Kirish

Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida inson resurslarini baholash orqali ularni salohiyatini aniqlash va shu asosida mas'ul lavozimlarga jalb etish tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 81-moddasida "Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish" Bakiyev M.R. et. al., *Gidrotexnika Inshootlari*, 2 vols (Yangi asr avlodi, 2008), I. vazifasi belgilangan. Mazkur vazifadan kelib chiqib, Davlat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholashning zamonaviy usullarini o'rganish asosida amaliyotga tadbiiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan 4-ilovasi "O'zbekiston — 2030" strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi"ga kiritilgan 81-maqсадning 18, 21-bandlarida "Milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini oshirish va istiqbolli boshqaruv kadrlarini saralab olish — TOP 100 dasturini amalga oshirish" [2] vazifalari belgilanganligi davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholash bo'yicha ilg'or xorij tajribasi va amaliyotini o'rganishni taqozo etadi.

## Adabiyotlar tahlili

Davlat organlari va idoralarida inson resurslaridan qanchalik samarali foydalanilganligini bilish uchun tashkilot salohiyatini baholash, undagi inson resurslarini mehnat faoliyatining yuqoriligini o'lchovchi indikatorlar va metodologiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholash tashkilotning istiqbollari va muvaffaqiyatining asosidir.

Inson resurslarini baholash tizimida xodimlarni baholash usullari tadqiq qilgan rossiyalik tadqiqotchilar Y.S. Morozova va Y.S. Shatrovalar mehnat bozor rivojlanishi sharoitida xodimlarni baholash usullarini tahlil qilishib, inson resurslarini baholash usullarini tasniflashgan hamda ularning kamchiliklari va afzalliklarini o'rganishgan [2]. Ular inson resurslarini baholash usullarini ikki turi: "xodimlarning salohiyatini baholash" va "xodimlarni faoliyatni baholash"ning o'zaro bir-biri bilan bog'liqligini ta'kidlashadi. Ya'ni inson resurslarini baholash usullari xodimning mavjud salohiyatini, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini baholashga, shuningdek xodimlarning hozirgi va kelajakdagi muammolarni hal qilishga tayyorligini baholashga imkon beradi deb ta'riflashadi.

Bizningcha inson resurslarini salohiyatini baholashda uning nafaqat boshqaruv salohiyati, balkim xulq-atvorining, uning axloqiy me'yorlarga amal qilishini ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni inson resurslarini sohalar kesimida kompetensiyaviy baholash tizimini joriy etish samaradorlikni oshiradi. Ta'kidlash joizki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv tadqiqot, ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida ham ichki, ham tashqi bozorda yangi raqobatdosh ustunliklarni yaratishning samarali usuli hisoblanadi [10].

Rossiyalik tadqiqotchi Y.Masalova zamonaviy sharoitda kadrlar sifatini baholashga milliy miqyosda va global kontekstda dolzarb va ayni paytda muammoli masalalardan biri sifatida qaraydi. Davlat darajasida mavjud inson resurslarining sifati va kelajakda ular qanday talablarga javob berishi kerakligi haqida tushuncha berishi kerak bo'lgan milliy tizimlar xususida fikr yuritgan. Inson resurslarini baholash tizimi asosida istiqbolda kadrlarda shakllanishi kerak bo'lgan sifatlar, fazilatlar va kompetensiyalar ro'yxatini doimiy ravshida yangilab borish kerakligini ta'kidlaydi [3].

Bunda inson resurslarini baholovchi davlat va nodavlat institutlarining hamkorligini ta'minlash va bu borada mavjud "Aqliy markaz"lar faoliyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Litvalik tadqiqotchilar V.Jolita va P.Palmiralar inson resurslarini baholash mezonlarini shakllantirish shartlari va talablarini o'rganishgan. Baholash mezonlarini shakllantirish shartlarini aniqlashda inson resurslarini baholash jarayonining tuzilishini tahlil qilishgan. Shuningdek, inson resurslariga qarashlarning rivojlanishi, davlat sektorining inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha faolligini takomillashtirishda yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilishgan. Mualliflarning fikricha, inson resurslarini baholash jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda, baholash mezonlarini shakllantirishda faqat qonunlarda va tashkilotlarning hujjatlarida belgilangan talablarni baholash yetarli emas [4].

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini baholashning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son farmoni qabul qilingan. Farmonda "Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni baholashda kasbiy sifatleri, ish faoliyatida ajralib turadigan xislatlarini odilona va obyektiv yondashish yo'li asosida eng munosib va qobiliyatli kadrlarni tegishli davlat idoralariga, bundan tashqari munosib kadrlarni adolat me'zonlari asosida boshqa munosib tashkilotlarga qabul qilish hamda ularning xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo'llash maqsadga muvofiqdir" [5] – deb belgilab qo'yilgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonov "Inson taraqqiyoti" nomli darsligida inson taraqqiyotini baholashning asosiy mezonlari va ularning xususiyatlari haqida so'z yuritib, "Inson salohiyatining mohiyati samarali mehnat faoliyatining iqtisodiy asosi sifatidagi xodimning raqobatbardoshligi hisoblanadi. Inson salohiyatiga ishlab chiqarishda ro'y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, innovatsiya jarayonlari o'z ta'sirini ko'rsatadi" [6] deb fikr bildirib o'tgan.

Umuman olganda inson resurslari faoliyati samaradorligini baholashda ular tomonidan bajarilgan yoki ko'rsatilgan ishlar hajmi; berilgan vazifalarning murakkabligi; xodim zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini xususiyatlari, hamda mehnat natijasini ham hisobga olish, shuningdek, ularning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot usullari**

Davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholashning xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholash zaruriyati ilmiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, baholashning asosiy jihatlari, inson resurslarini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida sohani raqamlashtirish bilan izohlanadi.

O'zbekiston davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholashga doir tahlilida induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

## Tadqiqot natijalari

Inson resurslarini baholash orqali tashkilotning istiqbol rejalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish natijasi aholining davlat organlari va idoralariga ishonchini oshirishi mumkin. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun inson resurslarini baholash orqali ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularni karyera trayektoriyasi bo'yicha o'stirib borishda aniq dastur-reja ishlab chiqarish maqsadga muvofiq.

Davlat organlarida kadrlar resurslarini baholash xodimlarni samarali boshqarish, davlat xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Davlat organlarida inson resurslarini baholashning bir necha asosiy jihatlari mavjud bo'lib, quyidagilar ularga misol bo'la oladi:

**asosiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlash:** davlat organlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan asosiy kompetensiyalar va xodimlarni baholash mezonlarini aniq belgilash zarur. Bu tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'muriy va shaxslararo munosabatlarda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olishi;

**turli baholash usullaridan foydalanish:** attestatsiya, anketa, ish faoliyatini baholash (KPI), ish faoliyatini tahlil qilish, 360 graduslik fikr-mulohaza va boshqalar kabi inson resurslarini baholash uchun turli usullardan foydalanish mumkin [9]. Har bir usul o'zining afzalliklariga ega va muayyan vaziyatga qarab qo'llanilishi;

**motivatsiya va rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish:** yuqori natijalarga erishish va kasbiy o'sishni rag'batlantiradigan xodimlarni motivatsiya va rag'batlantirish tizimini yaratish muhimdir. Bunga samarali natija uchun mukofotlar, kasbiy rivojlanish dasturlari, martaba oshirish imkoniyatlari va boshqa chora-tadbirlar;

**xodimlarning ehtiyojlari va fikr-mulohazalarini hisobga olish:** xodimlarning ehtiyojlari va talablarini hisobga olish, ularga o'z fikrlarini bildirish va o'z g'oyalarini taklif qilish imkoniyatini berish muhimdir. Bu ijobiy ish muhitini yaratishga yordam beradi, rahbariyat va xodimlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash;

**natijalarni monitoring qilish va tahlil qilish:** inson resurslarini baholash natijalarini muntazam ravishda monitoring qilish va tahlil qilish kadrlar ishidagi tendensiyalar va muammolarni aniqlash hamda ularni tuzatish bo'yicha o'z vaqtida choralarni ko'rish imkonini beradi. Bu davlat organlari faoliyati natijadorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Davlat organlarida inson resurslari salohiyatini baholash ularning samarali faoliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi va ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## Muhokama natijalari

Davlat boshqaruvi organlarida inson resurslaridan samarali foydalanish mehnat, vaqt, pul xarajatlarni kamaytirish orqali yuqori natijadorlikka erishish imkonini beradi. Ya'ni davlat organlari va idoralarida inson resurslari samaradorligi bu xodim qilayotgan ishning tashkilot maqsadlari va belgilangan talablarga muvofiqligini anglatadi. Bunda ishni eng oqilona va tejamkor usullardan foydalangan holda bajarish va xodimning imkoniyatlaridan (qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari) to'liq foydalanishga e'tibor qaratish muhim. Buning uchun esa inson resurslari salohiyatini baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda xodimlar faoliyati va salohiyati haqidagi ma'lumotlar (davomatini kuzatish, samaradorlik ko'rsatkichlari, kasbiy va boshqaruv salohiyatini baholash natijalarini) asosida ular haqida obyektiv ma'lumotlarni jamlash va umumlashtirish hamda asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda inson resurslarini baholash jarayoni faqat xodimning lavozimga ko'tarilishi yoki ish haqini oshirish bilan cheklanmaydi, balki tashkilot uchun xodimlarning kuchli va zaif tomonlarini to'g'ri baholash uchun yaxshi imkoniyatdir. Xodimlarni baholashning zamonaviy usullari xodimlarning ish samaradorligi, tashkilot talablariga javob berishini isbotlaydi.

Davlat organlari va idoralarida inson resurslari faoliyatini baholash jarayonini davlatning tarmoq yoki sohadagi siyosatidan kelib chiqib, o'zgarib turishi mumkin. Bunda inson resurslarining ishdagi faoliyatini va ma'lum bir vaqt oralig'ida tashkilot muvaffaqiyatiga qo'shgan umumiy hissasini ko'rib chiqish asosida "tashkilot yillik rejasini bajarilishini ko'rib chiqish", "xodimlarni mehnat salohiyatini baholash", "xodimlar faoliyat natijalarini baholash", "xodimlarning boshqaruv faoliyatini baholash"ga e'tibor qaratiladi. Bu xodimning ko'nikmalarini, yutuqlarini va o'sishini yoki unumdorlik yetishmasligini baholaydi va ularni yaxshilash uchun yo'l ochadi. Butun jarayon tashkilotlarga kelajak uchun o'z faoliyatlarini samarali rejalarini ("Yo'l xarita"lari)ni ishlab chiqishga yordam beradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayaniladigan bo'lsa, inson resurslari faoliyatni baholashning zamonaviy usullaridan samarali foydalaniladi. Jumladan:

- faoliyat natijani baholash usuli;
- reyting usullari;
- juftlashgan taqqoslash;
- ish sharoiti (ish joyi)da tekshirish usuli;
- esse usuli;
- maxfiy hisobot;
- rotatsiya usuli;
- tanqidiy tahlil usuli [7].

Davlat organlari va idoralarida ilg'or texnologiyalar tufayli ish joylari keskin o'zgardi va shuning uchun inson resurslarini ochiq va shaffof baholash usuliga ehtiyoj seziladi. Umuman olganda, an'anaviy baholash usullari ko'proq shaxsning shaxsiy xususiyatlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, mehnat faoliyatini baholashning zamonaviy usullari xodimning yutuqlariga ko'proq e'tibor beradi [8]. Boshqa tomondan, zamonaviy usullar xodimlarni baholash tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda davlat organlari va idoralarida inson resurslarini baholash jarayonini xolislikni ta'minlash uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi.

## Xulosa

Inson resurslarini baholash tizimi tashkilotdagi barcha xodimlar faoliyatiga aloqador, ya'ni inson resurslarini baholash tizimidan kadrlarni qidirish va tanlash, ishga qabul qilish, moslashtirish, xodimlarni sertifikatlash, murabbiylik, kadrlar zaxirasini shakllantirish, rotatsiya, o'zgartirish va ishdan bo'shatish jarayonlarida foydalaniladi. Odatda, inson resurslarini baholash rejalashtirilgan hodisa bo'lib, tashkilotning ichki hayotiga mustahkam integratsiyalangan. Ba'zida u maxsus voqealar munosabati bilan amalga oshiriladi — masalan, tashkilotda (institutsonal, strukturaviy va funksional) o'zgarishlar (qayta tashkil etish) jarayonida kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvi organlarida inson resurslarini baholashda zamonaviy usullardan samarali foydalanish uchun xodim faoliyatini to'g'ri baholash muhim hisoblanadi. Buning uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

**birinchidan**, davlat organlari va idoralarining faoliyat turidan kelib chiqib, baholash usullarini to'g'ri tanlash. Inson resurslarini baholash tizimini raqamlashtirish va dasturiy ta'minoti (masalan: 151 EYE, PeopleForce -platformalari)ni yaratish;

**ikkinchidan**, har bir soha va tarmoq uchun inson resurslarini baholashning tashkiliy huquqiy asoslarini yaratish. Inson resurslarini malaka va bilimlarini baholash milliy tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash;

**uchinchidan**, davlat organlari va idoralarida xodimlarning malakasini baholash markazlari (bo'limlari) faoliyatini tashkil qilish. Amaldagi inson resurslari malakasini oshirish va reyting baholash tizimini takomillashtirish lozim;

**to'rtinchidan**, ishga qabul qilishda, sinov muddati tugaganda; bo'sh lavozimni egallash uchun tanlov o'tkazishda, kadrlar zaxirasini shakllantirish, korxonaning muammolarini hal qilish uchun muhim bo'lgan vakolatlar bo'yicha xodimlarning hozirgi va potensial rivojlanish darajasini

aniqlashda va boshqaruv xodimlarini tayyorlashda inson resurslarini muntazam baholab borish maqsadga muvofiqdir.

### Adabiyotlar

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/6811936>
- [3] Морозова Елена Сергеевна, Шатрова Екатерина Сергеевна. Современные методы оценки персонала в системе управлений человеческими ресурсами // Региональное развитие, 2015. №4 (8). URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennyye-metody-otsenki-personala-v-sisteme-upravleniya-chelovecheskimi-resursami>.
- [4] Масалова, Юлия. (2019). Оценка качества человеческих ресурсов в условиях формирования Национальной системы квалификаций. *Russian Journal of Labor Economics*. 6. 1043. 10.18334/et.6.3.40846.
- [5] Vveinhardt, Jolita & Papšienė, Palmira. (2013). The Structure of Human Resources Assessment Process: Conditions for Criteria Formation. *Business and Management Research*. 2. 69-84. 10.5430/bmr.v2n2p69
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son farmoni // <https://lex.uz/docs/4549998>
- [7] Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 115 b.
- [8] Modern Performance Appraisal Methods // <https://www.pockethrms.com/blog/7-modern-performance-appraisal-methods/>
- [9] Carter, L. M. (2018). "Breaking Down Hierarchies: The Challenges of Flatter Organizational Structures." *Journal of Business Administration Research*, 22(1), 45-63. doi:10.1108/jbar.2018.123456
- [10] Yang, J., & Davis, P. A. (2016). "Micromanagement in the Age of Autonomy: Balancing Control and Employee Empowerment." *Leadership & Organization Development Journal*, 37(3), 89-106. doi:10.1108

UO‘K 339.466.54

## AUTSORSING XIZMATLARIDAN MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA FOYDALANISH XAVFI, SAMARADORLIGI VA SIFATINI BAHOLASH TAHLILI

**Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna**-mustaqil izlanuvchi (DSc), ORCID: 0009-0002-6479-6709,  
E-mail: [nasibaergasheva1988@gmail.com](mailto:nasibaergasheva1988@gmail.com)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** *Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash muammolari va ularning yechimini topish hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 3-6 yoshdagi bolalarni ovqatlantirish, dars berish hamda har xil mashg'ulotlar bilan shug'ullantirishda xizmatlarning xavf darajasini pasaytirish hamda samaradorlik va sifatni oshirishda mijoz tomonidan autsorsing xizmatlar bozorini tanlash, autsorsing shartnomasini tuzish va boshqarish jarayonlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

*Ushbu muammolarni hal qilishning AMUI (autsorsing, mijoz, uchinchi tomon va integratsiyalashgan) usulidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ishlab chiqilgan.*

*Tadqiqot jarayoniga ko'ra, autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash AMUI usulidan foydalanish natijasida xavf darajasining pasayishi, sifat va samaradorlikning oshishi namoyon bo'lgan.*

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tegishli faoliyat sohasidagi eng raqobatbardosh va samarali faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarni jalb qilish orqali kam xarajat evaziga innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati ta'minlandi, barcha resurslaridan foydalanish samaradorligi va ularni kamaytirish imkoniyatlarini oshirish amalga oshirildi.*

**Kalit so'zlar:** *autsorsing, autsorser, maktabgacha ta'lim tashkiloti, xavf, samaradorlik, sifat, autsorsing xizmat, baholash, narx, autsorsing narxi.*

УДК 339.466.54

## АНАЛИЗ РИСКА, ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУТСОРСИНГОВЫХ УСЛУГ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Эргашева Насиба Рахматуллаевна** – самостоятельный соискатель (DSc)

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** *Проблема оценки риска, эффективности и качества использования в дошкольных образовательных организациях, включая цели и задачи аутсорсинговых услуг, является одним из наиболее актуальных вопросов на данный момент, поскольку питание, обучение и разнообразная деятельность детей от 3 до 6 лет в дошкольных образовательных организациях является важной. Представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по выбору клиентом рынка аутсорсинговых услуг, заключению аутсорсингового договора и процессам управления для снижения уровня рисков и повышения эффективности и качества услуг.*

*Разработана целесообразность использования АКСИ (аутсорсингового, клиентского, стороннего и интегрированного) метода решения этих задач.*

*По данным исследования, применение АКСИ метода оценки риска, эффективности и качества использования аутсорсинговых услуг в дошкольных образовательных организациях показало снижение уровня риска, увеличение качества и эффективности.*

*За счет привлечения наиболее конкурентоспособных и эффективных организаций дошкольного образования в соответствующей сфере деятельности была обеспечена возможность использования инновационных технологий с низкими затратами, повышена эффективность использования всех ресурсов и возможности их сокращения.*

**Ключевые слова:** аутсорсинг, аутсорсер, организация дошкольного образования, риск, эффективность, качество, аутсорсинговые услуги, оценка, цена, стоимость аутсорсинга.

UDC 339.466.54

## **ANALYSIS OF RISK, EFFECTIVENESS AND QUALITY ASSESSMENT OF THE USE OF OUTSOURCING SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**Ergasheva, Nasiba Rakhmatullaevna** - Independent researcher (DSc)

Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** *The problem of evaluating the risk, efficiency and quality of use in preschool educational organizations, including the goals and tasks of outsourcing services, is one of the most urgent issues at the moment, because feeding, teaching and various activities of children aged 3-6 in preschool educational organizations Scientifically based proposals and recommendations are presented on the selection of the outsourcing services market by the client, the conclusion of the outsourcing contract and the management processes to reduce the level of risk and increase the efficiency and quality of services.*

*The feasibility of using the ACTI (outsourcing, customer, third party and integrated) method of solving these problems has been developed.*

*According to the research process, the use of ACTI method of assessing the risk, efficiency and quality of using outsourcing services in preschool educational organizations showed a decrease in the level of risk, an increase in quality and efficiency.*

*By attracting the most competitive and efficient organizations of preschool education organizations in the relevant field of activity, the opportunity to use innovative technologies at a low cost was provided, the efficiency of using all resources and the possibility of reducing them was increased.*

**Keywords:** *outsourcing, outsourcer, preschool education organization, risk, efficiency. quality, outsourcing service, evaluation, price, outsourcing cost.*

### **Kirish**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aoutsorsingni tashkil etishning zamonaviy shakllari, dunyo aoutsorsing xizmatlari bozori va uning geografiyasidagi asosiy tendensiyalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati, tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'minlashning sifat jihatidan baholash mezonlari, aoutsorsing xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari, aoutsorsingni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari-mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inidir. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3-7 yoshli bolalarni qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi beg'ubor, murg'ak qalbli yosh bolalarni sog'lom o'stirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yoshiga mos ravishda zamonaviy bilim va tarbiya berish hamda ma'naviy yuksaltirishdan iboratdir. Natijada yosh bolalarni maktabgacha ta'lim

tashkilotlariga qamrab olish darajasi 2023-yilda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 74,4 foizga, jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 92 foizga yetkaziladi. Bolalar bog'chalaridagi mutaxassis pedagoglar bolalarning qobiliyati imkoniyatlarini aniqlab, qiziqishlarini o'rganib, ota-onalarga bolalar tarbiyasi bo'yicha zaruriy tavsiyalar berishi lozim. Shuning uchun ham ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan muntazam aloqada bo'lislari kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotida outsorsing xizmatlari yaqin yillarda paydo bo'ldi. Bu outsorsing shartnomalarini faol ravishda tuzishni boshlagan mahalliy tashkilot va kompaniyalar uchun yangi xizmat ko'rsatish sohasi. Fikrimizcha, outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash mahalliy amaliyotda tarqalishini cheklovchi omillardan biri – ulardan foydalanishning ishlab chiqilgan to'g'ri mexanizmining yo'qligi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan biz ushbu sohani o'rganishni, tashkilot va kompaniyalar rahbarlarining xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholashning eng muhim nuqtalarini aniqlashni zarur deb hisoblaymiz. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o'ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qilmoqchimiz.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash muammosi va ularni amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan ishlanmalar tahlili, shuningdek, outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi muammosini o'rganish xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ulardagi joylar sonining ko'payib, bolalarni qamrab olish darajasining oshishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarga maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [1] muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Qaror asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, unga asosan davlat, davlat-sherikchilik, xususiy va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ta'minlash belgilangan edi.

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash masalalari ko'pgina iqtisodchi olimlar, jumladan Gilmiyarova M.R. [2], Fedorova YE.A., Yermolov A.V. [3], Korneychik M., Lyasuskaya N. [4], Vasilyev A.S., Mirgorodskaya T.V. [5], Yeskova L.F., Drozd A.M., Manevich A.V. [6], Pardayev M.Q. [7], Urazov B.K. [8] tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. Ushbu olimlar va boshqalar. Ushbu tadqiqot yo'nalishining o'ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarning aksariyati faqat outsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan. Bu asosan outsorsingning ma'lum bir turidan foydalanish va u bilan bog'liq muammolarga tegishli tadqiqotlardir.

Autsorsing sohasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan to'plangan juda kam amaliy tajribaga qaramay, outsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanish mexanizmi rivojlanish yo'lida bormoqda. Ushbu masala bo'yicha ilmiy ishlarning juda kamligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash faoliyatini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash tahlili qilish asosida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashning uslubiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan masalalar, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, so'rovnoma, iqtisodiy tahlillash va tizimli tahlil bilan izohlanadi.

## Tahlil va natijalar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash outsorsing loyihalaridan foydalanish mexanizmida xavflarni boshqarishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Iqtisodiy adabiyotlarda bu konsepsiyaning ko'plab ta'riflari mavjud. Biroq, umumiy holatda, xavf deganda xavf omillari va turlarini aniqlash va ularni miqdoriy baholashning tizimli jarayoni tushuniladi. Demak, xavflarni tahlil qilish metodologiyasi bir-birini to'ldiruvchi sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, xavfni sifatli tahlil qilishning asosiy vazifasi xavfning manbalari va sabablarini, uning paydo bo'lish bosqichlari va ishlarini aniqlashdir.

Xavf – bu ehtimollik toifasi, shuning uchun noaniqlikni baholash va uning darajasini miqdoriy aniqlash jarayonida ehtimollik hisob-kitoblari qo'llaniladi. Bunday baholash outsorsing loyihasiidan foydalanish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun keyingi tahlil obyekti bo'ladigan yo'qotishlar nuqtai nazaridan eng mumkin bo'lgan xatarlarni va yo'qotishlar bo'yicha muhimlarni aniqlash imkonini beradi. Ehtimollarni baholash, shuningdek, namunaviy tadqiqotlarning amaliy imkoniyatlarini aniqlashga va kelajakdagi harakatlarni bashorat qilishga yordam beradi. Bunday munosabatlarni o'rganish ular qat'iy, funksional bog'liq emasligi bilan murakkablashadi. Ushbu o'zgaruvchiga ta'sir qiluvchi barcha asosiy omillarni (masalan, foyda, xavf) aniqlash juda qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu o'zaro ta'sirlarning aksariyati tasodifiy, noaniq va statistik kuzatishlar soni bilan cheklangan. Bunday sharoitda matematik statistika (ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish nazariyasi) iqtisodiy modellarni qurish va ularning parametrlarini baholash, iqtisodiy ko'rsatkichlarning xususiyatlari va ularning o'zaro bog'liqlik shakllari to'g'risidagi farazlarni sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa pirovard natijada xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlil va prognozlash uchun asos bo'lib, asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfini sifatli baholashdan maqsad ham moliyaviy, xo'jalik va boshqaruv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan xavflarning asosiy turlarini aniqlashdir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, tahlilning dastlabki bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilot rahbari xavflarning miqdoriy tarkibi bo'yicha xavf darajasini vizual ravishda baholashi mumkin va bu holatda u ma'lum bir qarorni amalga oshirishdan bosh tortishi mumkin.

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli xavfning sifatli tahlilining yakuniy natijalari, o'z navbatida, miqdoriy tahlil uchun dastlabki ma'lumot bo'lib xizmat qiladi, ya'ni faqat qaror qabul qilish algoritmining muayyan operatsiyasini amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan xavflar baholanadi.


Miqdoriy xavfni tahlil qilish bosqichida uning raqamli qiymatlari hisoblanadi. Mumkin bo'lgan zarar ham aniqlanadi va uning namoyon bo'lishining xarajatlar smetasi beriladi. Nihoyat, miqdoriy baholashning yakuniy bosqichi xavfga qarshi choralar tizimini ishlab chiqish va ularning xarajatlar ekvivalentini hisoblashdir. Miqdoriy xavfni tahlil qilishning eng keng tarqalgan usullari statistik, analitik, ekspert baholash usuli, analogiya usulidir.

Autsorsing xavfini miqdoriy baholashning roli, agar muqobil yechimlar to'plamidan eng katta foyda keltiradigan optimalni tanlash mumkin bo'lganda sezilarli darajada oshadi. Xavfni minimallashtirish maqsadlariga muvofiq eng kam xarajat va yo'qotish bilan eng yaxshi natijaga erishish ehtimoli. Bu yerda ko'rib chiqilayotgan outsorsing jarayonlarining elementlarini aniqlash, miqdoriy baholash, baholash va taqqoslash, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida ularning tavsifi bilan munosabatlarni, tendensiyalarni, qonuniyatlarni aniqlash kerak.

Sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish ularni baholash tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Mijozlarning qoniqish darajasini baholash usullari sohasidagi tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sifat parametrlarini aniqlash va baholash masalalariga ham qator ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Bu kabi tadqiqotlarda mijozlar ehtiyojini qondirish va ularning qoniqish konsepsiyasi xizmat sifati tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.

Sifat parametrlarini baholashdagi muammolar va murakkabliklar baholash mezonlarini rasmiylashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, ularni o'lash usullarini aniqlash kabilar bilan bog'liq hisoblanadi. Xizmatlar sifatini baholashning mavjud usullarining asosiy kamchiliklari ko'pincha ishlab chiquvchilarning muammolarni hal qilishga yetarlicha e'tibor bermasligi va baholash tizimiga kiritilgan muhim parametrlarni tanlashning xizmatlar ko'lamiga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish standarti quyidagilarga nisbatan xizmat ko'rsatish tizimining mijozlar bilan o'zaro ta'siriga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan me'yoriy shaklda o'rnatilishi kerak. Ya'ni, xizmat standartini belgilashda quyidagi mezonlarga tayanish lozim bo'ladi (1-rasm).



**1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmat ko'rsatish standartlarini belgilovchi mezonlar<sup>1</sup>.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish vaqti deganda nafaqat xizmat foydalanish uchun sarflangan vaqt, balki mazkur xizmatdan foydalanish uchun belgilangan joyga yetib borish bilan bog'liq vaqtni ham inobatga olish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini amalga oshirishda bunga o'xshash ko'plab muammolar vujudga kelgan, xizmat narxi arzon, ammo u ko'rsatiladigan manzilga yetib borish ancha vaqt va xarajat talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'rsatiladigan outsorsing xizmatining joylashuvini ham hisobga olish lozim, ya'ni mijozlar guruhlari uchun transportdan foydalanish imkoniyatlari bir-biriga yaqin bo'lishi lozim, shuningdek, joylashuv nuqtai nazaridan hudud va binolarga kirish imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat haqidagi ma'lumotlar to'liq va ishonchli bo'lishi, ko'rsatilgan xizmatlarning berilgan axborotlarga mos tushishi talab qilinadi. Bunda xizmat ko'rsatish qoidalari, mijozlarning huquqlari, nomaqbul sifat va xizmatlar hajmi uchun da'vo arizasi berish tartibi va boshqalarning ishonchliligi ta'minlanishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmat narxi va undan foydalanish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ayrim toifalari uchun belgilangan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga outsorsinglar xizmatlarini ko'rsatish sifatini kompleks baholashning mazmunli tahlili quyidagi asosiy usullarni aniqlash imkonini beradi:

a) haqiqatda ko'rsatiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing sifatini mavjud standartlariga muvofiqligini monitoring qilish;

<sup>1</sup> Manba: muallif ishlanmasi

b) ko'rsatilayotgan xizmat sifatini aniqlash bo'yicha iste'molchilar fikrini o'rganish, sotsiologik tadqiqotlar;

v) ko'rsatilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing xizmatlarining sifat standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha nazorat choralari ishlab chiqish va amalga oshirish.

Amaldagi sifatni baholash usullarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat holatlarda ko'rsatiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlari sifatini baholash so'rovnomalar monitoringi, sotsiologik so'rovlar qo'llaniladi, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholash uchun foydalaniladigan barcha parametrlar to'plami shartli ravishda ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

a) avtomatik ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar to'plamini aniqlash. Ushbu guruh uchun quyidagi parametrlarni ajratish mumkin: outsorsing xizmatni qabul qilish vaqti; rejalashtirilgan vaqti; xodimlarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish normalariga rioya qilish va boshqalar;

b) ekspert baholash. Bunday holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing xizmat ko'rsatish sifatini baholash uchun ishlatiladigan asosiy parametrlar to'plami: iste'molchi uchun xizmatdan foydalanish imkoniyati; xodimlar malakasi; xizmatdan qoniqish darajasi; xizmat ko'rsatish shartlari: qulaylik, xushmuomalalik va boshqalar; outsorsing xizmatlarini ko'rsatishdagi tartib-qoidalarga rioya qilinishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsingni amalga oshirish natijalarini baholashda ushbu parametrlar majmuasidan foydalanish outsorsing xizmatlari sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Yuqorida ta'kidlanganidek, outsorsing qo'shimcha raqobatdosh ustunliklarni ta'minlaydigan biznes jarayonlarini boshqarishning zamonaviy modelidir, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun xususiy kompaniyalarning zaxiralaridan foydalanish ushbu afzalliklarning asosiy manbai hisoblanadi.

Autsorsingga topshirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari sifatini o'lchash tartibini quyidagi asosiy bosqichlar bilan tavsiflash mumkin: 1) baholash holatini aniqlash; 2) ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; 3) xususiyatlarni o'lchash uchun shkalani shakllantirish; 4) taqqoslash asosini tanlash va asoslash; 5) yagona ko'rsatkichlarni yig'ish. Baholash holatini aniqlash bosqichida baholash subyektlarini belgilash talab qilinadi, shuningdek cheklovchi omillar aniqlanadi. Baholash holatiga nisbatan aniqlik ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin.

**Birinchi yondashuv** – maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim belgilari va xususiyatlarini aniqlash va ularni tasniflash. **Ikkinchi yondashuv** — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing jarayonlar majmui sifatida taqdim etishga asoslanadi va ushbu xizmatdagi individual jarayonlarni va ularning muhim xususiyatlarini taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatining tanlangan xususiyatlarini o'lchash uchun shkalani shakllantirish bosqichi ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi. Bular tashqi ajralib turadigan ko'rsatkichlari, masshtab turini aniqlash (nominal, tartibli, intervalli), o'lchov birliklari (bo'linmalar soni), shuningdek, birlamchi o'lchovning haqiqiyliigi, mustahkamligi va aniqligini tekshirish.

Asosiy bosqichlardan biri – bu taqqoslash bazasini tanlash, individual va o'rtacha hisob-kitoblar bo'lishi mumkin. O'rtacha baholar me'yoriy, indeksli, istiqbolli, ideal, reagnostik yoki prognostik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan va boshqalar sifatida tuzilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmati sifatini baholash shkalasi sifatida 0 dan 1 gacha yoki 0 dan 100 gacha bo'lgan oraliqda normallashtirilgan shkalalardan foydalanish, keyinchalik baholashning yakuniy natijalarini to'rt daraja intervalli shkalaga qisqartirish tavsiya etiladi (jadval).

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bir vaqtning o'zida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing sifatiga qo'yiladigan talablar, ularning normativ va haqiqiy qiymati, sifat talablaridan chetga chiqish ko'rsatkichlari taqqoslanadi.

**Jadval**

**Autsorsing bilan shug‘ullanuvchi korxonaga topshirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari sifatini baholashning taxminiy shkalasi<sup>2</sup>**

Baho	Interval (umumiy masshtabdagi ulushi, foiz)	Sifat
Baho 1	0-50	Autsorsing sifati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat standartiga minimal darajada mos keladi
Baho 2	50-80	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing sifat standarti ma’lum darajada buzilgan holda taqdim etiladi. Buni osongina tuzatish mumkin.
Baho 3	81-90	Autsorsing sifati umumiy hisobda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifat standartiga mos keladi.
Baho 4	91-100	Autsorsing sifati maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifat standartlariga to‘liq mos keladi

Autsorsingga topshirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing ko‘rsatish sifatining yakuniy bahosini olish uchun normallashtirish mexanizmlari, ustuvor baholash tartib-qoidalari, yagona ko‘rsatkichlarni yig‘ish va ulardan foydalangan holda barcha mezonlar uchun baholash qiymatlarini birlashtirish kerak, bu ma’lumotlarni umumlashtirish va integral ko‘rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autsorsing sifatini o‘lchash va baholashning mavjud usullarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular asosan xizmatlar ko‘rsatish tizimlari va muddatining tashqi bahosini olishga (ya’ni iste’molchi nuqtai nazaridan baholash) qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari autsorsingga topshiriladigan xizmatlarining sifatini o‘lchash uchun mutaxassislar rahbarlik qilishi kerak bo‘lgan yagona baholash va chora-tadbirlar tizimini joriy etish kerak. Faqat bu holatda xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Shu sababli olingan natijalarga asoslangan holda qaysi xizmatlarning autsorsingga o‘tkazilishi kerakligini asoslash lozim.

Shu bilan birga, ushbu ro‘yxatga kiritilgan barcha xizmatlar osongina o‘lchanadigan, standartlashtirilgan bo‘lishi kerak, xizmatlarning turli sinflari va holatlariga mos kelishi va ularni baholash jarayonida muhim ishni talab qilmasligi kerak. Faqat bu holatda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifat halqasini olish mumkin. Biroq bu holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan bog‘liq barcha jarayonlarga, shu jumladan, xizmatlar sifati siklida ishlaydigan uchta asosiy jarayonga (marketing, dizayn va xizmatlar ko‘rsatish) operatsion talablarni belgilash uchun sifat tizimining metodologiyasini yaratish talab qilinadi.

Autsorsing xizmatlarining samaradorligi, kelajakda e’tiborga olinishi kerak, ya’ni shartnomani bajarish va yakunlashdan keyin buyurtmachi kompaniyadagi vaziyat qanchalik yaxshilandi. Biroq muzokaralar jarayoni bosqichida autsorsing xizmatlarining samaradorligini mijoz-kompaniyaning potensial yoki haqiqiy xarajatlari va autsorsing narxi nuqtai nazaridan baholash tavsiya etiladi.

Autsorsing xizmatlari bozori amaliyotida keltirilgan usullardan, bizning fikrimizcha, quyidagi:

- daromadning oddiy (hisob-kitob) normasi usuli;
- loyihaning ichki rentabelligini baholash usuli;
- loyihaning sof joriy qiymatini baholash usullaridan foydalanish eng maqbuldir.

**Xulosa**

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash quyidagi natijalarga erishish maqsad qilinadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini mos vazifalariga yo‘naltirishga erishish uchun sharoit yaratish;

<sup>2</sup> Manba: muallif ishlanmasi

- barcha darajadagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ma’muriy-iqtisodiy jihatdan ta’minoti sifatini oshirish;
- outsorsing shartnomasida so‘ralayotgan natijalar sifatini va yetkazib beruvchining javobgarligini batafsil ko‘rsatish imkoniyati (xizmatning shaffofligini oshirish);
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tegishli faoliyat sohasidagi eng raqobatbardosh va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlarni jalb qilish;
- kam xarajat evaziga innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash;
- atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatini oshirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlariga kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchini o‘zgartirishni soddalashtirish;
- barcha resurslaridan foydalanish samaradorligi va ularni kamaytirish imkoniyatlarini oshirish.

Bularning barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga bevosita ta’sir qiladi.

### Adabiyotlar

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda “2017-2021-yillarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
- [2] Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.
- [3] Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решений. 2016. №27,С 4-14.
- [4] Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - 02.05.2018.
- [5] Васильев А.С., Миргородская Т.Б. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Част 2. - С. 19-21.
- [6] Ескова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.Б. Аутсорсинг в Республике Беларусь.
- [7] Pardayev M.Q. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari.–Т.: «Iqtisod–moliya». 2008. – 260 b.
- [8] Urozov B.K. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditning dolzarb masalalari. – Т.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2011. – 260 b.
- [9] Ergasheva N. Outsorsing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023 – № 1. – B. 91-95. (08.00.00; №20).
- [10] Ergasheva N. Autosorsing xizmatlari bozorini baholash // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 3/2 – 2023, № 21. – B. 191-193. (OAK 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar №21)
- [11] Ergasheva N. Analysis of risk, effectiveness and quality assessment of using outsourcing services in preschool educational organizations // Journal of Management Value & Ethics. <https://www.jmveindia.com / journal / Oct – dec. 2023. Vol.13 №04. – P. 47-53. №6>.
- [12] Ergasheva N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarini iqtisodiy baholashning “X2S” mexanizmini shakllantirish yo‘nalishlari // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023. – № 4. – B. 91-95. (08.00.00; №20).